

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Qo'lyozma huquqida UDK: 809.4/.9

BBK:81.2-4

S-96

Suleymanova Nodira Rustamovna

Xitoy va O'zbek tillaridagi maqollarning qiyosiy tahlili
(semantik va struktur jihatdan)

5A120102 Lingvistika (xitoy tili)

Magistr
akademik darajasini olish uchun
yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots. A.A. Karimov

Toshkent 2012

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq Respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, manaviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshladi. Prezidentimiz I. Karimov mustaqillikning ilk kunlaridanoq eng oliy vazifa qilib – davlat siyosatining ko'tarilishi, uzoq yillar davomida saqlanib, bizga meros bo'lib qolgan xalqimizning qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga erishildi.¹

Maqollar - xalqning ming yillik turmush tajribalarida sinalgan hayotiy xulosalari, donoligi, ma'naviy boyligi, madaniy merosi durdonalaridir. XIX asrda yashagan V.I.Dal mashhur yozuvchi, tilshunos olim, yirik rus maqol va iboralari majmuasining muallifi “Maqol ... to'qib chiqarilmaydi, u o'z-o'zidan dunyoga keladi”² degan.

Maqollarni o'rganmay turib, “xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o'ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan” etnografiyani chetlab o'tish mumkin emas”³.

Shu narsa aniqki, maqollarning tadqiq etilishi nafaqat ko'pchilik fanlarning rivojlanishi uchun favqulodda foydali, muhim va zarur, balki, aksincha, maqollarning chuqur va ko'pqirrali tahlil etilishi o'sha ko'pchilik fanlarni jalb etmasdan imkonsizdir.

Ishimizda o'zbek va xitoy maqollari qiyosiy nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi. Xitoy tili dunyoning *yan yu (maqol)*, matal va iboralarga boy tillaridan biri bo'lib, uning butun go'zalligi, tarovati ana shu maqollarda o'z ifodasini topgan. E'tirof etish kerakki, xitoy tilshunosligida frazeologiya hali hanuz alohida soha sifatida o'rganilmay kelmoqda. Chunonchi Go Sin Inning yozishicha, xitoy tilshunosligida frazeologiya xozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida

¹ Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.-T.: 1997,-B.317.

² Даль В.И. Пословицы русского народа.-М.: 2000,-С.32.

³ Даль В.И. Пословицы русского народа.-М.: 2000, -С.34.

ajratilmagan hamda leksikologiyaning bu bo'limi hali mahsus nomga ham ega emas.⁴ V.A. Vetrovning e'tiroficha xitoy tilshunoslarining frazeologiyaga bag'ishlangan ishlarida (20-asrning 50-60 yillaridagi tadqiqotlar nazarda tutilmoqda) turli ma'nolarda tushunish mumkin bo'lgan *chenyu* (idioma) termini qo'llanila boshlandi. Bu termin, asosan, quyidagi ma'nolarda ishlatilgan: 1) to'rt komponentdan iborat bo'lgan turg'un birikmalar, maqollar, matallar, aforizmlar; 2) tor ma'noda: faqat frazeologik birliklarni bildiradi. Ammo boshqa xitoy tilshunoslari keng ma'nodagi "frazeologiya" yoki "frazeologik birlik" tushunchasi uchun *shuyu* terminini qo'llaydilar. Bunda *shu* komponenti "tayyor" yoki "tanish" ma'nosini ifoda etsa, "yu" esa "jumla", "so'z" ma'nosiga ega. Natijada *shuyu* termini fanda termin mavqeiga erishadi.

Umuman olganda, xitoy tilshunoslarining leksikologiyaga oid ishlarida *shuyu* Terminining har doim ham ajratilmaganligini kuzatish mumkin. Hususan xitoy tilidagi frazeologiya alohida ajratilib tadqiq etilganida ham, asosan, yo'l yo'lakay ma'lumot berib o'tilganini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Masalan: Yun Sheng, Jan Yun Yan, U Jan Kun, Vang Tsin, Fu Huay tsin singari tilshunos olimlar frazeologizmlar qatorida tilda uchraydigan barcha turg'un birikmalar va turg'un gaplarni (maqollar, matallar, aforizmlar) keltiradilar. Xitoy tili lug'atlari ham ana shu qarashlar ta'siri ostida tuzilgan. Frazeologizmlar

Xitoy tilshunosligida o'rganila boshlagach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish masalasi ko'tarila boshlandi. Masalan: Sun Vey Chan⁵ frazemalarni quyidagicha tasniflaydi: 1) *chenyu* idioma, 2) *guangyongyu* idiomatik so'z birikmasi, 3) *xiehou yu* ma'nosi ikki so'z birikmasida mujassamlashgan; 4) *yanyu* maqol; 5) *geyan* aforizmlar.

Xitoy tilidagi frazeologizmlar, Suy Gochenning fikricha idioma, idiomatik so'z birikma, siehouyu lardan iborat. Biroq nomlari tilga olingan xitoy tilshunoslari bu

⁴ Го Син И. Телесный код в китайской фразеологии и его русское соответствие. МГУ.:2004,-С.4.

⁵ 孙维张. 汉语熟语学.- 北京.:2003, 页 8.

ikki tasnifdan ko'proq birinchisiga yon bosadilar⁶. Frazologizmlarning chengyu, guangyongyu turlari alohida e'tiborni jalb etadi.

Demak, bayon etilgan fikrlardan xitoy tilshunosligida frazeologiyaning alohida soha sifatida shakllanish jarayoni davom etmoqda hamda bu borada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar ko'p degan xulosaga kelish mumkin.

Hozirgi zamon tilshunoslik fanida maqollarning qiyosiy-tipologik tadqiqi dolzarb hisoblanadi. Maqollar bu nuqtai nazardan deyarli tadqiq etilmagan: tilshunoslikda ikki (yoki bir necha) turli tizimdagi tillardagi maqollarning qiyosiy tahliliga bag'ishlangan yirik ishlar amalga oshirilmagan. Maqol - jamiyat "parchasi"ning modelidir. Shu bois uni o'rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma'nosi yo'q.

Mazkur ishimizning dolzarbligi so'z ko'rki bo'lmish maqollarning qiyosiy tahlili, xitoy va o'zbek tili maqollarining semantikasi hamda strukturasi o'rganiladi hamda qiyoslanadi. Ushbu ishimizdagi materiallar talabalarga, darsliklar uchun hamda bitiruv ishlar uchun material sifatida ko'mak beradi. Ishimizdagi maqollar va ularning xitoy tilidagi maqolning o'zbek tiliga qiyosiy muqobili, tarjimasi asarlar, kitob tarjimalarini qilishda ko'mak beradi. Xitoy tilini o'rganuvchi talabalar uchun xitoy maqollari bilan, ularning tarjimasi, xitoy tilidagi maqolning o'zbek tilidagi maqolning ekvivalenti bilan tanishishga va chuqurroq o'rganishga ko'mak beradi. Keltirgan maqollarimizda imkon qadar ularning (bir maqolning) boshqa variantlari ham keltirilgan.

Mazkur monografik tadqiqot muayyan ma'noda mavjud bo'shliqni to'ldirishi mumkin.. Misol tariqasida qo'llanilgan maqollar manbalardan hech o'zgarishsiz olib lug'atlarga qo'yilgan maqollar orasidan olingan. Maqollar to'plamlari, o'zbek, rus va xitoy tillarining izohli lug'atlari, ikkitilli va tarjima lug'atlari, shuningdek, badiiy asarlar tadqiqotning manbalari hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Xitoy tili maqollari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlar soni cheklangan. Zotan, yuqorida qayd etilganidek,

⁶ 胡裕树. 现代汉语. 上海.: 1981, 页 458 .

xitoy tilshunosligida frazeologiya sohasining shakllana boshlaganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Xitoy tilidagi keng ma'noli frazeologik birliklar ya'ni maqollar, frazeologik birliklarning o'ziga hos hussiyatlari, ayrim semantik va struktur belgilari, tasniflanish masalalari Xitoy tilshunoslaridan Yun Sheng, Zhang Yun Yan, U Chan kun, Vang Sin, rus xitoyshunoslaridan А.П. Рогачев, З.И. Баранова, В.И. Горелов kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'tarilgan. Yuqorida sanab o'tilgan olimlar idiomalar borasidagi ilmiy ishlarni qilishgan. Ammo aynan maqol borasidagi tadqiqotlar deyarli yo'q. Maqollar haqidagi lug'atlar, ya'ni alfavit ketma ketligidagi xitoycha ruscha maqollar lug'atlari mavjud.

O'zbek maqollari haqidagi ilmiy ishlar: P.U. Bakirov tomonidan «O'zbek, rus, qozoq tilidagi maqollarning semantik struktur tahlili» amalga oshirilgan. Sh. Shomaqsudov tomonidan o'zbek maqollari haqidagi "Hikmatnoma" nomli kitobi chiqarilgan va shuningdek "O'zbek xalq maqollari" nomli 2tomlik kitoblari nashr etilgan.

Shundan ko'rinib turibdiki xitoy va o'zbek maqollarining semantik-struktur qiyosiy tahlili amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: Ilmiy ishdan ko'zlangan maqsad Xitoy va o'zbek tillaridagi maqollar tahlilini bajarish, ularning semantik hamda struktur jihatdan qiyosini amalga oshirish. Ikki tildagi maqollarning semantik jihatdan bir biriga muqobillarini topish.

Tadqiqotning vazifalari:

- Ikki tildagi maqollarni qiyoslash, ma'no jihatidan bir biriga moslarini (muqobillarini) aniqlash;
- Har ikki tildagi maqollarning shakli, obrazlari har hil bo'lgan ammo, yagona mantiqiy mazmunga ega bo'lgan barcha maqollar variantlarini keltirish.
- Ikki tildagi maqollarni mazmun jihatdan bir biriga muqobillarini keltirish
- Xitoy va o'zbek tilidagi maqollar zahirasining mavzu guruhlarini qiyosiy tahlil etish;

- Ikki tildagi maqollarni semantik muqobillarini aniqlash, struktur jihatidan mos keluvchilarini aniqlash, hamda ikkala tildagi maqollarning mazmun ifodalovchi obrazlari qay darajada mos yoki farqli ekanligini yoritish. Har ikki tildagi maqollarni doimiy (regulyar) modellarini tahlil qilish ishimizning asosiy vazifalaridir.

Tadqiqot ishining ob'yektini paremiologik birliklar bo'lmish xitoy tilidagi maqollar bilan o'zbek tilidagi maqollarning qiyosiy tahlili tashkil etadi. Ishga manba sifatida, xitoy tili maqollar to'plami, maqollar lug'ati, badiiy adabiyot na'munalari, xitoy matbuotlarida chop etilgan publisistik maqolalar jalb etildi.

Ilmiy tadqiqot ishining predmeti. Xitoy va o'zbek tilidagi maqollarning semantik hamda struktur hususiyatlarini tahlil qilish tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari: Dissertatsiya ishi uchun umumiy tilshunoslik hamda xitoy, rus, o'zbek tillari leksikologiyasi, paremiologiya sohasiga oid ilmiy tadqiqotlar hamda xitoy xalq maqollar to'plami kitoblari hamda lug'atlar jumladan: V.I Dal, A.A.Potebnya, G.L.Permyakov, Vang shu shan, Li Syao Vey, P.U. Bakirov, Sh.Shomaqsudov, H.Shorahmonov, A.O.Dandis, E.D.Sulaymonova, A.A.Karimov, S.A.Hoshimovalarning ilmiy nazariy qarashlari asos vazifasini o'taydi.

Tadqiqot metodlari: Dissertatsiyani yozishda analiz, sintez, tasniflash, ta'riflash, tavsiflash, komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi: Mazkur dissertatsiya ishida xitoy tilidagi maqollar o'zbek tilidagi maqollar bilan ilk bor qiyosiy tahlili amalga oshirilmoqda. Ular semantik jihatdan, struktur jihatdan bir biriga qiyoslandi, solishtirildi hamda farqli va o'xshash tomonlari yoritildi. Maqollarni bir mantiqiy mazmunga ega maqollarining boshqa variantlari ham keltirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy amaliy ahamiyati: Dissertatsiya materiallari, ishning nazariy hulosalari xitoy tilshunosligi va o'zbek xitoyshunoslogida maqollar bo'yicha yondashuvlarni nazariy boyitishga hissa qo'shadi. Dissertatsiya natijalari xitoy tilidagi maqollarning semantik guruhlashtirish masalasiga oydinlik kiritadi.

Xitoy tilini o'rganuvchi talabalarga mahsus kurs sifatida o'rgatilishi o'zbek xitoyshunos talabalariga maqollarni yanada chuqurroq anglashga, asarlar va boshqa manb'alar tarjima qilish jarayonida uchraydigan maqollarni tarjima qilishda va maqolni o'zbek tilidagi muqobillarini aniqlashda tayyor ma'nba sifatida foydalanish mumkin. Shu bilan birga, xitoy tili bakalavriat yo'nalishidagi "Xitoy tili", "Xitoy leksikologiyasi" yoki mahsus kurs sifatida "Xitoy xalq maqollari" nomli kichik kurs fanini o'qitishda amaliy ko'mak beradi. Shuningdek, dissertatsiya materiallari tarjimonlik, ayniqsa, sinhron tarjimonlikda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining joriylanishi: Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha "O'zbekistonda Xitoyshunoslik: Tarix, hozirgi zamon va kelajak" nomli ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida "Xitoy va o'zbek tilidagi maqollar tahlilining ayrim masalalariga doir" nomli maqola nashr etilgan. Undan tashqari shu yilning bahorida "Xitoy va o'zbek tillaridagi maqollarning semantik va struktur jihatlarining qiyosiy tahlili" nomli fakultetaro maqolasi chop etildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

Maqollar - xalq og'zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan emas, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o'ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko'rsa, ming yillar bo'yi tirik jon kabi saqlanadi.

-To'g'ri ma'noga ega bo'lgan jumla maqolga aylanayotganda u majoziy obrazga aylanadi: ifodasi ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noga ega bo'lishi mumkin.

- Maqollar semantik va struktur jihatdan to'la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo'lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o'ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o'zaro yaqin bo'lgan va umuman bir-biriga qardosh bo'lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo'lishi va bir xil alomatni ko'rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo'ladi. Xitoy va o'zbek tilidagi ayrim

maqollar ham bir biridan ko'chirilgandek bir hil obrazli va bir hil semantik guruhga egadir.

-Maqolni boshqa paremiyalardan ajratish uchun uning tub, spesifik alomatlarini tavsiflash zarur. Unda biz paremiyalarni spesifik alomatlariga – Xalqchilik, kelib chiqishi qadimiy bo'lgan, metaforiklik, majoziylik, ko'p manolilik, nasihatomezlik, nazmiylik kabi hususiyatlarga bo'lib, ularni xitoy tilidagi maqollar misolida tahlil qilib chiqamiz.

-Maqollar boshqa barcha paremiyalar singari quyidagi xossalarni namoyon etadi: 1) qoliplashganlik; 2) aforistiklik; 3) utilitarlik; 4) antropotsentriklik.

Paremiyaning bir spesifik turi bo'lgan maqollarga xos bo'lgan xossalar quyidagilardir: 1) xalqchilik; 2) kelib chiqishining qadimiyligi va dolzarblik; 3) metaforiklik; 4) majoziylik; 5) ko'pma'nolilik va umumlashtiruvchi xarakter; 6) nasihatomezlik; 7) obrazlilik; 8) hissiy to'lalilik; 9) ixchamlik; 10) struktur-semantik tugallik. Ushbu hossalarni ham o'zbek tili ham xitoy tili misolida ko'rib chiqiladi va yoritiladi.

Ana shu xossalarga suyanagan holda quyidagi maqollarni taklif etamiz: “Maqol – obrazli, majoziy va nasihat xarakteriga ega bo'lgan qoliplashgan paradigmatic shakldagi struktur va semantik jihatdan tugallangan ixcham xalq so'zi bo'lgan maqollarni xitoy tilidagi maqollar misolida ajratib chiqildi.

-Har bir xalq maqollarda o'z tajribasini ixcham shaklda aks ettiradi, ammo ko'pincha bu tajriba boshqa xalqlarning tajribalari bilan mos keladi. Shundandir, ko'pincha, turli tillardagi maqollar bir-biridan aynan nusxa ko'chirilganga o'xshab ko'rinadi.

-O'zbek va Xitoy tilidagi maqollar tematik guruhlariga ajratiladi.

MDIning tuzilishi: Ushbu Xitoy va o'zbek tillaridagi maqollarning qiyosiy tahliliga oid ishimiz 3bobdan iborat. Birinchi bobda 2ta fasl, ikkinchi bobda uchta fasl va ohirgi 3bobda 2ta fasldan tashkil topgan.

I - bobning “Maqol filologik tadqiqotning obyekti sifatida” deb nomlanib, uning birinchi faslida “Maqol haqida o'zbek va rus, xitoy va ovropa

tilshunoslarining nazariy qarashlari” deya nomlanib unda barcha maqollar bilan shug’ullangan olimlarning maqollarga bergan ta’riflari, fikrlari keltirilgan. Turli paremiologlarning maqol bo’yicha qilingan ishlarida maqolning tahlil qilish usullari hamda yondashuvlari keltirilgan.

Ikkinchi faslda “Tilshunoslarning tadqiqotlarida maqollarning paremiologik birlik sifatida o’rganilishi” deb nomlanadi. Unda Paremiologiya atamasiga ta’rif beriladi. Maqolni boshqa paremiyalardan ajratish uchun uning tub, spesifik alomatlarini tavsiflanib, unda biz paremiyalarni spesifik alomatlariga – Xalqchilik, kelib chiqishi qadimiy bo’lgan, metaforiklik, majozilik, ko’p manolilik, nasihatamuzlik, nazmiylik kabi hususiyatlarga bo’lib, ularni xitoy tilidagi maqollar misolida tahlil qilib chiqiladi.

II - bobda “Xitoy va o’zbek maqollarning semantik tahlili” ko’rib chiqiladi. Bobning birinchi faslida “O’zbek tili maqollarining semantik tahlili” deb nomlanib, unda o’zbek tilidagi maqollar ko’rib chiqilgan. Maqollar tematik guruhlarga ajratilib, ulardan asosiy mavzular: 1) Vatan; 2) Inson mohiyati va ichki dunyosi; 3) boylik-kambag’allik; 4) sog’liq; 5) yahshilik-yomonlik; 6) donolik-ahmoqlik; 7) ilm-fan, bilim; 8) oilaviy munosabatlar; 9) so’z va til haqidagi maqollar ajratilgan. Har guruh maqollarda 8tdan 15tagacha bo’lgan maqollar keltirilgan.

Ikkinchi faslda “Xitoy tilidagi maqollarning semantik tahlili” yoritilgan. Unda semantik tahlilga 50taga yaqin maqollar tortilgan bo’lib, maqollarni tematik guruhlarga ajratdik. Ulardan: 1) Vatan; 2) Boylik va kambag’allik; 3) Yahshilik va yomonlik; 4) Ilm-fan, bilim; 5) Oilaviy munosabatlar; 6) Do’st va dushmanlik; 7) Xalqning falsafiy tajribasi haqidagi maqollar; 8) So’z va til haqidagi maqollar guruhiga ajratildi.

Uchinchi faslda esa “Xitoy va o’zbek maqollarining semantik hususiyatlari (qiyosiy tahlil)” keltiriladi. Unda ikki tildagi maqollarning semantik bir biriga o’xshashlari keltirilib, o’zbek tilidagi va xitoy tilidagi maqollarning shakli, obrazlari har hil bo’lgan ammo, yagona mantiqiy mazmunga ega bo’lgan barcha

maqollar variantlari keltiriladi. Xitoy tilidagi maqollarning tarjimasi hamda o'zbek tilida mazmun jihatidan mubollari keltiriladi.

III - bobda "Xitoy va o'zbek tilidagi maqollarning struktur tahlili (qiyosiy tahlil)" deb nomlanadi.

Birinchi faslda "O'zbek tilidagi maqollarning struktur tahlili" qilinib, unda o'zbek maqollarining ko'p qo'llaniladigan struktur modellari keltiriladi.

Ikkinchi faslda esa "Xitoy tilidagi maqollarning struktur tahlili" ko'rib chiqildi. Xitoy maqollarining regulyar struktur modellari misollar bilan keltirildi. Misolga 20dan ortiq maqollar struktur tahlilga tortilgan.

Yakunlovchi qismda xulosa keltiriladi.

I BOB. MAQOL – FILOLOGIK TADQIQOTNING OB’EKTI SIFATIDA

Maqol va iboralar olami turli soha mutaxassislari hisoblangan olimlar – paremiologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, folklorshunoslar, etnograflarning tadqiqotlar olib borishlari uchun “hosildor maydon” hisoblanadi. Bu tabiiy hol, chunki maqol shaklan ixcham, sodda bo‘lishiga qaramay, turli tadqiqot nuqtai nazarlaridan ko‘rib chiqilishi mumkin. Maqollar semantik va struktur jihatdan to‘la tugallangan matn sifatida tilshunoslikning til haqidagi ancha navqiron sohasi bo‘lgan matn lingvistikasining ham diqqatini o‘ziga jalb etmoqda. Bir til, hatto o‘zaro yaqin bo‘lgan va umuman bir-biriga qardosh bo‘lmagan tillardagi turli maqollar yagona mantiqiy turga tegishli bo‘lishi va bir xil alomatni ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ular mantiqiy semantika va semiotikaga bevosita tegishli bo‘ladi.⁷

Maqollar grammatik nuqtai nazardan muayyan sintaktik birlik hisoblangan gaplardir. Shu bois maqolning sintaktik birlik sifatida shakliy tuzilishi grammatikada o‘rganilishi lozim.

Bizningcha, bunday mulohazalar trivial xulosa emas, aksiomatik xulosaga o‘xshaydi. Bunda tadqiqotchining vazifasi – bularning qanchalar adolatli ekanligi va bir-biriga qardosh va bir-biridan ancha uzoq bo‘lgan turli tillar asosida teranligini ko‘rsatishdir.

Maqollarning, ayniqsa, mazmun nuqtai nazaridan kompleks tadqiq etilishi madaniyatshunoslik, etnolingvistika va etnografiya singari fan sohalari bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan boshqasiga o‘tadi. Ijtimoiy taraqqiyotning ilk bosqichlarida bu og‘zaki shaklda, jumladan xalq og‘zaki ijodi, xususan, bunday ijodning eng ko‘zga ko‘ringan janrlaridan biri bo‘lgan maqollar vositasida amalga oshirilgan.

⁷ Даль В.И. Пословицы русского народа. М.: 1984, -С.37.

“Maqollar - xalq og‘zaki ijodi merosining eng keng tarqalgan emas, eng xarakterli janri hisoblanadi. Xalq tarixi, xarakteri, mehnat faoliyati va turmushining o‘ziga xosliklari maqollarda muhrlangan yoki qadimiy turmushning toshlarga qoldirgan izlari singari ishonchli, metaforik tarzda yashiringan. Maqollar, ularni yaratgan xalq qancha umr ko‘rsa, ming yillar bo‘yi tirik jon kabi saqlanadi. Maqollarni yuzaga chiqargan xalq tili ham o‘zining obrazli qudrati bilan ming yillar bo‘yi saqlanib kelaveradi”⁸

Yana shuni unutmaslik kerakki, maqollar, ularni yaratgan xalqning donoligini o‘zida mujassam etadi. Xalq donishmandligi haqidagi– yirik bir fan. Buyuk tajribaga ega bo‘lgan kishilar unga ega bo‘ladilar. Davrining va undan keyingi asrlarning buyuk donishmandi, eramizdan oldingi IV asrning yirik faylasufi Aristotel shunday degan edi: “Donishmandlik ba’zi sabablar va ibtidolar haqidagi fandir... Donishmandlikni, adolat nuqtai nazaridan iloxiy demoq mumkin va shu bois donishmandlik, birinchi navbatda, tangriga o‘xshaydi...”⁹

Etnolingvistika - tilning madaniyat, xalqning o‘zi, uning urf-odatlar va tasavvurlari bilan aloqasini o‘rganuvchi tilshunoslikdagi bir yo‘nalishdir. Amerika etnolingvistikasining eng yirik namoyandasi E. Sepirning faraziga ko‘ra, “tilning madaniyatni o‘rganishning ibtido sifatidagi qiymati yanada ortadi”. Tom ma’noda u yoki bu jamiyatning madaniyat modellari tizimi o‘sha jamiyatni aks ettiruvchi tilda o‘z ifodasini topadi.¹⁰ Maqol - jamiyat “parchasi”ning modelidir. Shu bois uni o‘rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma’nosi yo‘q.

1.1§ Maqol haqida o‘zbek,rus, xitoy, ovropa tilshunoslarining nazariy qarashlari.

Ushbu paragrafda turli tilshunos olimarning maqol bilan bog‘liq qilingan ishlarida maqol haqida bergan ta’riflari hamda nazariy qarashlarini keltiramiz. Unda O‘zbek tilshunoslari,xitoy tilshunoslari,rus va ovro’pa tilshunoslarining maqolga

⁸ Узбекские народные пословицы, поговорки и загадки.-М.: 1985, -С.86.

⁹ Горький А.М. История русской литературы.М.:1957,-С.38.

¹⁰ Кууси.М.К, К вопросу о международной системе пословичных типов. /Паремнологический сборник.М.: 1978,-С.6.

bergan ta'riflari keltiladi. Turli olimlar maqolga turlicha ta'rif berganlar, unda ayrim tilshunoslarning (paremiologlarning) fikriga qo'shilamiz va ayrimlariga esa qo'shilmaymiz. Maqol borasida salmoqli ish qilgan olimlardan V.I. Dal, A. Dandis, A. Teylor, B.J. Uayt, G.L. Permyakov, A.A. Potebnya, V.L. Anikin, Sh. Shomaqsudov, P. U. Bakirov va E.D. Sulaymonovalarning fikrlari orinli. Ularni ko'rib chiqamiz: So'nggi o'n yillarda maqollar xususida turli xil, ba'zan umuman bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan nuqtai nazarlar ilgari surilmoqda. Masalan, hozirgi zamon paremiologiyasining asoschilaridan biri G. L. Permyakovning fikricha, maqolning obrazlilik va tashqi tuzilishi, maqol orqali aks ettirilgan etnografik va etnogenik realiyalar uni tavsiflovchi asosiy jihatlar emas. Uning fikricha, asosiysi, maqolning asosiy mazmuni uning mantiqiy konstruksiyasi (tuzilishi)ni belgilashidir. "Maqol va iboralar vaziyat yoki narsalar orasidagi muayyan munosabatlarning belgilari hisoblanadi"¹¹

Boshqa tadqiqotchilar, aksincha, "folklorning bir janri hisoblangan maqoldagi asosiy narsa uning mantiqiy tabiati yoki unda mujassam bo'lgan ma'lumot emas, badiiy obraz va ma'naviy ikki planlilikdir. Mantiq qonunlariga muvofiq tarzda silliq tizilgan eng teran mulohazalar, qisqa va lo'nda shaklda ifoda etilgan eng dono fikrlar, agar badiiy shaklga ega bo'lmasa, hech qachon balandparvoz (ta'sirchan) bo'la olmaydi. Zero har qanday chiroyli shakllantirilgan nutq maqol bo'la olmaydi."¹²

A. Dandisning fikricha, "Yigirmanchi asrda, zamonaviy ijtimoiy fanlar ta'sirida maqollarni adabiy va tarixiy nuqtai nazardan o'rganishdan chetga chiqila boshlanganga o'xshaydi."¹³ "Maqol va iboralar mehnatkash xalqning butun hayotiy, ijtimoiy-tarixiy tajribasini shakllantiradi."

"Maqollar - xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasi aks etgan xalq so'zlaridir.

¹¹ Пермяков Г.Л., Пословицы и поговорки народов Востока. 1979, -С.19.

¹² Мартынова У, Митрофанова Д, Пословицы, поговорки и загадки. 1986, -С. 6.

¹³ Дандис А.О. О структуре пословицы. Паремиилогический сборник .М.:1978, -С.13.

A. Тейлор ning fikricha: “Maqollarga ta’rif berilishi juda mushkul ish. Bir gapning maqolmi yoki maqol emasligini aniqlash ham oson emas. Shu bois hech qanday ta’rif maqolning to’la va ishonch bilan tavsiflash, maqolning nima ekanligini aniq belgilashga ko‘mak bera olmaydi”¹⁴

Б. Ж. Уайтинг “Maqolga berilgan qisqa va ayni paytda ish uchun maqbul ta’rif, ayniqsa, maqol jummalarni qamray oladigan ta’rifni taklif etish imkonsiz... Baxtga, ta’rif haqiqatan ham zarur hisoblanmaydi, chunki maqol nimaligini yaxshi bilamiz.”¹⁵

Biz bunday umidsiz nuqtai nazarga qo‘shilmaymiz. Agar biz uning tub va umumiy alomatlarini ajrata olsak, har qanday tushunchani aniqlash (ta’riflasini hamda) mumkin. A. A. Potebnya maqollarning qisqalik, metaforiklik, ixcham, lo‘nda, o‘lchovli nutq singari tub xossalarni ko‘rsatgan edi¹⁶.

V. I. Dal “maqol” atamasining aniq tushunish zaruriyatini anglab yetgan edi: “Maqol, matal va shunga o‘xshash iboralarga nom berib, men shunday boshi berk ko‘chaga kirib qoldimki, bu nomlar ostida nimalarni tushunishim va ularni xalq qanday tushunayotganligini izoh etmasdan bu boshi berk ko‘chadan chiqishning iloji yo‘q”. U maqolda “ ritorikaning barcha jilolari” namunalari, istiora, majoz, giperbola, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, qarama-qarshilik, o‘zgarish, ikki fikrlilik, jonlantrish, shartlilik, chala (yarim) fikr, shuningdek, xalq og‘zaki ijodining qo‘shiq va ertak janrlarga xos “o‘lchovli va ixcham ko‘rinish”ni topadi.

Mazmun, mundarija nuqtai nazaridan “maqol - qisqa rivoyatdir; maqol o‘z nomi bilan “quruq nutqning maqol emasligini” bildiradi.

Maqol – xulosa, mulohaza, hukm, nasihatdir”¹⁷

Maqolga xos jumlar, V. I. Dalning fikricha, nutqqa maqol ko‘rinishida kiradi, ammo ularda rivoyat, naqlda mujassam emas.

V. I. Dal paremiyalarning boshqa turlarini ham ko‘rib chiqadi, bu: tezaytishlar, topishmoqlar va b. Xalq og‘zaki ijodidagi barcha sanab o‘tilgan janrlardan

¹⁴ Bakirov P.U. O‘zbek, rus qozoq tillarining semantik va struktur tahlili. T.: 2006, -B.73.

¹⁵ Уайтинг Б. Ж., Дандис А.О. Паремнологический сборник /цит.:1978, -С.14.

¹⁶ Потебня А.А. Поговорки, пословицы, сказки. 1976, -С.520.

¹⁷ Даль В.И. Пословицы русского народа; М.: 1984, -С.13.

maqollardan eng yaqini matallardir. “Matal, xalq bergan ta’rifga ko‘ra, mitti bir gul bo‘lsa, maqol – mevadir; Bu eng to‘g‘ri xulosa. Matal – yon ifoda, ko‘chma nutq, oddiy majoz, ifoda usuli, ammo naqlsiz, xulosasiz; bu maqolning birinchi yarmidir”

A. A. Potebnya maqol va masal orasida ko‘p umumiylik borligini topdi va ko‘p hollarda, yuzlab misollarga qaraganda masallar maqollarning kelib chiqish manbaidir deb hisobladi. Hayot taqdim etgan o‘ta mushkul vaziyatlar, ya’ni bir yoki bir necha ishtirokchi, bir yoki bir necha harakatga javob bor. Masaldan maqolga o‘tayotib, u shuni ta’kidlaydiki, maqollar masallar kabi bir xil emas. Uning fikricha, “Masallarning kichik bir qismi miyada saqlanadi, ko‘pchilik masallar esa fikrni izohlash uchun birinchi talabimizga ko‘ra namoyon bo‘lishga tayyor bo‘lgani uchun maqolga aylanadi. Lekin masalning birinchi qismi hech qanday o‘zgarishsiz qoladi”¹⁸

Ba’zi hollarda **masalning butun mazmuni maqolga aylanishi mumkin**. Masalan, 耗子给猫拜年 - 送死 *hao zi gei mao bai nian song si*. Tarjimasi: Sichqon mushukni yangi yil bilan tabriklagani boribdi- o‘lgisi kelibdi(sichqonni o‘lgisi kelsa mushuk bilan o‘ynashar)

Qolaversa, maqollarning boshqa she’riy shakllardan paydo bo‘lishining asosiy yo‘li – fikriy va nutqiy kompressiyadir. “... nisbatan uzun hikoya maqolga aylanib, zarur bo‘lgan qismi ifodani anglatish uchun qisqarib, ixchamlashib, fikrimizda mujassam bo‘ladi va oson tiklanadi”

A. A. Potebnya asosida quyidagilar mujassam bo‘lgan maqollarni ajratadi: a) **aniq vaziyat tasviri**: 瓦罐常去汲井水, 总有一天会在井边打破 *wa guan chang qu ji jing shui, zong you yi tian hui zai jing bian da shui*. (so‘zma-so‘z: ko‘zaga suvga borish yoqib qolibdi, u yerda boshidan judo bo‘lishini bilmaydi),

A. A. Potebnya she’riy asarlarning maqolga ixchamlashish qobiliyati faqat asarlarning badiiylik darajasiga bog‘liq emasligini ta’kidlaydi. Uzun bir

¹⁸ Потебня А.А. Поговорки, пословицы, сказки. М.: 1976, -С.476.

hikoyaning maqolga qisqarib aylanish jarayoni inson tafakkuri uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar sirasiga kiradi.

Olimning fikricha, masal va boshqa she'riy asarlar xususiy holat (hodisa)larni izohlaydi, hodisada mujassam bo'lgan turli xususiyatlarni kichik miqdorga birlashtiradi. Buni ko'proq, ixchamligi bilan maqol amalga oshiradi. Bunday jarayon A. A. Potebnya tafakkurning quyushuvi deb nomlaydi ¹⁹

To'g'ri ma'noga ega bo'lgan jumla maqolga aylanayotganda u majoziy obrazga aylanadi. Masalan, ifodasi ham to'g'ri, ham ko'chma ma'noga ega bo'lishi mumkin. *Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichadi.* (xitoycha muqobili 一朝被蛇咬, 十年怕井绳 *yi zhao bei she yao shi nian pa jing sheng*) Tarjimasi: Bir marta ilon chaqsa, o'n yil arqondan ham qo'rqib yuradi. Majoziy: Ya'ni bir marta adashgan keyingi safar o'ylab ish qiladi, yana kuyib qolmaslik uchun. Ushbu Xitoy xalq maqolida aynan "ilon" ifoda vositasi sifatida qo'llangan bo'lsa, o'zbek maqolida esa "qatiq" so'zi mazmunni ifodalab kelgan.

Maqol va matallar xalq og'zaki ijodining janri o'laroq V. P. Anikin va Yu. G. Kruglov tomonidan batafsil tahlil qilinadi.

Tadqiqotchilar maqolga quyidagicha ta'rif beradilar: "Nutqda muqobillik tamoyiliga ko'ra ko'p ma'noda qo'llanila oladigan qisqa, nutqda mustahkam o'rnatilgan, ritmik tashkillashgan obrazli nutqqa maqol deyiladi. Mazkur ta'rifda ko'rsatib o'tilgan belgi va alomatlar – qisqalik, turg'unlik, ritm, ko'p ma'nolilik va b. Shuningdek, maqollar to'g'risida ularning xalqning ijtimoiy-tarixiy va turmush tajribalarini umumlashtirishi ham ta'kidlanadi"²⁰ . Ularning fikricha, maqolning janr sifatidagi yagonaligi, agar uning tarixiy kelib chiqishi xalq turmushi, tili va san'atining o'ziga xos hodisasi sifatida tahlil etiladigan bo'lsa, yanada oydinlashadi.

Ilk maqollar qadim zamonlarda paydo bo'lgan. "Maqollarning paydo bo'lish sinoatlari ularning mazmunida yashiringan. Maqollarning ko'pchiligi insonlar orasidagi ishlab chiqarish munosabatlari, urf-odatlar maydoniga kirib boradi va

¹⁹ Потебня А.А. Поговорки, пословицы, сказки. -М.:1976, -С.520.

²⁰ Аникин В.П., Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.Л: 1983, -С.116.

shu maydonning ajralmas qismiga aylanadi. Maqollardagi fikrning she'riy ifodasi voqelikning ongsiz-badiiy shaklidir” Maqoldan farqli o‘laroq, “matal – nutqda emotsional baho uchun mavjud bo‘lgan va bir qator o‘xshash hayotiy hodisalarga nisbatan muqobillik tamoyiliga ko‘ra qo‘llaniluvchi umumqabul qilingan obrazli ifodadir... Agar maqol nutqni alohida mazmun, yangi bir butun xulosa bilan mustahkamlanayotgan bo‘lsa, matal bir tugal fikr (jumla), xulosa ichiga to‘laqonli bir bo‘lak sifatida kiritiladi”²¹.

XX asrning oxirgi 30 yilida maqollarni tahlil qilishning yangi struktur-semantik yondashuvi yuzaga keldi. Bu matn lingvistikasi va paremiologiya fan sohalari taraqqiyoti bilan bog‘liq.

Ilmiy paremiologiyaning asoschilaridan biri G.L. Permyakovdir. Uning fikricha, “tugallanmagan fikr”ni ifodalovchi majoziy so‘z oborotlariga matallar, “tugallangan fikr”ni shakllantiruvchi majoziy ma’noli gaplarga maqollar deyiladi ²² Maqollarni ham, matallarni ham G.L. Permyakov (bosma qolip so‘zlar) nazariyasi doirasida ko‘rib chiqadi. Har bir tilning lug‘at zahirasi murakkab o‘ziga xos qoliplar (klishe) bo‘ladi, ya’ni turg‘un, nutqda tayyor holda qo‘llaniladigan, bo‘linmas oborotlar mavjud. Bular (*ustasi farang*) shaklidagi frazeologizm-idiomalar, shaklidagi tarkibiy atamalar, har turli maqollar, matallar, “balandparvoz so‘zlar”, muallifning xalq hikmatli so‘zlari, semiotika (belgilar haqidagi fan)da oson tafakkur qilinadigan odatiy gazeta va adabiy shtamplar va boshqa.” ²³

G.L.Permyakov “maqollarni mantiqiy planda ko‘rib chiqish”ning o‘ta muhimligini ta’kidlaydi. Yagona mantiqiy mazmunga ega bo‘lgan maqollar bir-biridan tamoman farqli leksik-grammatik tarkibga ega bo‘lishi mumkin. Masalan:....

黑狗洗不白 *hei gou xi bu bai* Qora kuchukni yuvib oqartirib bo‘lmaydi.

Yuqorida keltirilgan maqollar bir xil narsa haqida so‘z boradi: “yomon narsa, qancha harakat qilinmasin, hech qachon yaxshi bo‘lib qolmaydi”.

狗嘴里吐不出象牙 *gou zui li tu bu chu xiang ya*

²¹ Аникин В. Круглов.А, Русское народное поэтическое творчество.Л.:1983, -С.129.

²² Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) М:1970, -С.7.

²³ Пермяков Г.Л. От поговорки до сказки (Заметки по общей теории клише) М:1970, -С.8.

Tarjimasi: Kuchuk og'zidan fil tishi chiqishini kutma.

O'zbekcha muqobili: "Yomondan yahshilik kutma".

Aniq obrazli unsurlar emas, aynan bunga o'xshash tuzilmalar har bir maqolning asosiy mazmunini belgilaydi. Maqollarning bunday xususiyati Rossiya Akademiyasining birinchi Lug'atida ta'kidlangan.

Bu lug'atda berilgan izohga ko'ra, maqol "mardlarcha qilingan ish buyuk bir narsaga erishish yoki barcha shaxsiy narsalardan mahrum bo'linishidagi omadsizlik"ni anglatadi. Masalan:

或成或败， 在此一举 *huo cheng huo bai,zai ci yi ju*— *Yo yutaman, yo yo'q bo'laman*. Tarjimasi: (yo omad,yoki yutkazish,yana bir urinish)

"O'z navbatida, mantiqiy aloqalarning xarakteri maqollarda so'z boradigan narsalar orasidagi munosabatlarning xususiyatlari bilan belgilanadi...

Maqol va matallarning mantiqiy planini mantiqiy-semiotik plan sifatida ko'rib chiqilishi kerak"²⁴

Frazeologizmlar paremiyalarining bir turi o'laroq belgi xarakteriga ega. Ammo ular maqol va matallardan tubdan farq qiladilar: "Frazeologizmlar narsalarning belgilari o'laroq prinsipial ravishda vaziyatlarning belgisi yoki narsalar orasidagi munosabatlarning belgisi bo'lgan maqol va matallardan farq qiladi"

N. M. Shanskiydan keyin ba'zi olimlar shuni ta'kidlashgan: "Turg'un iboralar hisoblangan frazeologik birikmalar erkin ma'noga ega bo'lgan so'zlardan iborat, ya'ni semantik bo'linish xususiyati bilan ajralib turadi... Bu guruh frazeologizmlarga balandparvoz ifodalar, maqollar, matallar ham kiradi."²⁵

Bunday birikmalarni "frazelogiklashgan" oborotlar deb atagan tilshunoslar ham bor.²⁶

Maqol va matallar bir qator ilmiy tadqiqotning ob'ekti bo'lib, turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqilgan. Turli mintaqalarda tadqiqotlar olib borgan olimlarning tadqiqotlari o'zining qimmatini bilan diqqat-e'tiborni o'ziga tortadi. 2-

²⁴. Пермяков Г.Л, От поговорки до сказки(Заметки по общей теории клише) М: 1970,-С.19-20.

²⁵ Розенталь В.Г, Голуб Т.С, Теленкова С.А, Современный русский язык.М: 2001, -С.113.

²⁶ Валгина Е.А, Розенталь В.Г, Фомина В.Е,Фразеология. 2001, -С.47.

jahon urushi maqol va matallari P.F. Lebedev olib borgan ilmiy tadqiqotning ob'ekti bo'lgan²⁷. P.E. Mishurenkoning tadqiqotida ukrain tilidagi bir tarkibli gap sintaktik shaklidagi maqollar keltirilgan. A. Z. Nashbaev livan xalq maqol va matallarining g'oyaviy-badiiy tahlili bilan shug'ullangan. L. A. Morozova rus xalq maqol va matallarining g'oyaviy-badiiy qimmatini, F. M. Hamraev uyg'ur xalq maqol va matallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tadqiq etgan.

O'zbek maqollarining o'rganilish tarihi: O'zbek Xalq durdonalarini, o'zbek xalq ijodining ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqollarni to'plash va o'rganish tarixi ham, ulardan yozuvchi va olimlarning o'z asarlarida foydalanishi ham uzoq davrlarga borib taqaladi. Hususan 11 asrning buyuk tilshunos olimi M. Koshgariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida turk tili oilasiga kiruvchi xalqlarning maqollaridan keng foydalangan. Bu asar yolg'iz o'sha davr tilidagi so'zlarni izohlovchi kitobgina emas, balki o'sha vaqtda butun O'rta Osiyo doirasida, ya'ni Yuqori Chindan tortib, Movorounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buhoroga qadar cho'zilgan keng va katta territoriyada yashagan urug', qabila, xalqlar, ularning tillari, o'sha davr xalq og'zaki ijodiy maqollari to'g'risida ham ma'lumot beruvchi nodir filologik asardir. Demak, bu qimmatli ilmiy va nodir asar xalq og'zaki ijodining butun yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan, ayniqsa xalq maqollarini o'rganuvchi ilmiy fikrlarni sharxlashda xalq maqollariga katta e'tibor berilgan, birinchi marta xalq maqollarini yeg'uvchi asar hamdir. Bu haqida M. Koshg'ariyning o'zi shunday yozadi: "Men bu kitobni mahsus alifbe tartibida xikmatli so'zlar, sahlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim"²⁸

Maqol va matallarning tillararo transpozitsiyasi B. T. Tairbekovning tadqiqotida ishlangan²⁹. M. Z. Sadriddinovanning ilmiy tadqiqoti³⁰ o'zbek maqol va matallari leksikasi tadqiqiga bag'ishlangan. B.A. Soatov³¹ o'zbek xalq maqollarining janr

²⁷ Bakirov P.U, "O'zbek, rus qozoq tillarining semantik va struktur tahlili" T.:2006,-B.45.

²⁸ Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1Tom, Toshkent.:1960yil,-B.44-45.

²⁹ Tairbekov B.T, Maqol va matallarning tillararo transpozitsiyasi.-Baku.:1965,-B.21.

³⁰ Sadriddinova M. Z, O'zbek maqol va matallari leksikasi, T, 1984.-B.128.

³¹ Soatov B.A, O'zbek xalq maqollarining janr va she'riy xususiyatlari,-T, 1990,-B.53.

xususiyatlari va she'riy xususiyatlarini aniqlagan. X. Sharafiddinova o'zbek xalq maqollarining tuzilishidagi qofiya va uning funksional-uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratgan. I. Begmurotov, R. A. Latipova, E. V. Ivanovalarning ilmiy tadqiqotlarida folklor aloqalari, jumladan maqol va matallar qiyosiy planda ko'rib chiqilgan. Rus maqollari V.D. Chernelevaning tadqiqotida qiyosiy aspektda o'rganilgan.

So'nggi paytlarda maqol va matallar mamlakatimizda ham olimlar tomonidan faol o'rganila boshlandi: N. B. Saparova qozoq talabalarga rus tilining nominasentrik maqollarini o'rgatish metodikasini ishlab chiqdi. B. E. Karimovanning tadqiqotida rus va ingliz tillaridagi izohli lug'atlardan joy olgan paremiologiya tadqiq etilgan.

Paremiologik nazariyadagi holatlar M. A. Cherkasskiy, A.O. Dandis, M. Kuusi, V. Foyt, A. Krikmann, Yu. I . Levin, A.K. Jolgovskiy, Yu.K. Sheglov, N. Barli va Yu.V. Rojdestvenskiylarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan.

Masalan, N. Barli maqolni quyidagicha belgilaydi: “fundamental mantiqiy munosabatlarni tahlil qiluvchi qoliplashgan paradigmatic shakldagi axloqiy yoki kategorial imperativlarga nisbatan umumqabul qilingan gap”³²

Hozirgi paytda maqol deganda: “Kundalik nutqda qisqa, turg'un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (sodda yoki qo'shma gap)” tushuniladi .

Xalqning tajribasi ma'naviy qadriyatlarning yaratilishida favqulodda muhim rol o'ynaydi. “Insonlarda xotiralari tufayli tajriba paydo bo'ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san'at bilan deyarli bir xildir. Fan va san'atgap esa insonlar tajriba tufayli erishadilar. Chunki, V. Pol aytganidek, tajriba san'atni yaratgan (Pol – sofist, Gorgiyning shogirdi)” – va to'g'ri aytgan, tajribasizlik – hodisa”³³ .

N. Barlining adolatli tasdig'iga ko'ra, “maqolni unga o'xshagan boshqa turdosh shakllar bilan munosabat kompleksidan alohida ko'rib chiqish mumkin emas.”³⁴ .

³² Барли. Н, Структурный подход к пословице; М.: 1984, -С.133.

³³ Аристотель , Метафизика, Л.:1999, -С.6.

³⁴ Барли. Н, Структурный подход к пословице; М.: 1984, -С.13.

1.2. § Tilshunoslarning tadqiqotlarida maqollarning paremiologik birlik sifatida o'rganilishi.

Paremiya (yunon. Paroimia – naql, rivoyat) – dunyoning barcha tillariga xos umumiy hodisadir³⁵. Tilshunoslik, folkloristika va boshqa turdosh fanlarda erishilgan muvaffaqiyatlar XX asrning oxirgi o'ttiz yili va XXI asrning boshlarida maqol va iboralar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi maxsus fan -hozirgi zamon paremiologiyasining gurkirab rivojlanishiga olib keldi

Maqolning gap bilan grammatik jihatdan to'la mos keluvchi paremiya ekanligi haqidagi tasavvur umum qabul qilingan tasavvur hisoblanadi. Maqol gapdan kichik bo'lmasligi va ayni paytda hajm jihatdan undan oshmasligi lozim. Bu yerda gap ham sodda, ham qo'shma gaplar haqida bormoqda.

Shu bilan birga, maqol o'zining tashqi tuzilish jihatdan soddaligiga qaramay, shunchalik murakkab hodisa hisoblanadiki, hanuzgacha fanda bunday turdagi paremiyalarga berilgan, umumqabul qilingan yagona ta'rif mavjud emas. Undan tashqari, ko'pchilik tadqiqotchilar bunday ta'rif berilishi mumkin emas deb hisoblaydilar.

Maqolni boshqa paremiyalardan ajratish uchun uning tub, spesifik alomatlarini tavsiflash zarur. Unda biz paremiyalarni spesifik alomatlariga – Xalqchilik, kelib chiqishi qadimiy bo'lgan, metaforiklik, majoziylik, ko'p manolilik, nasihatomezlik, nazmiylik kabi hususiyatlarga bo'lib, ularni xitoy tilidagi maqollar misolida tahlil qilib chiqamiz. Masalan:

1. Xalqchilik. Maqolda asrlar avlodlarning asarlar bo'yi sinalgan donoligi aks etadi. “Maqol va matallar uchun xalq ichiga borish kerakligiga xech kim shubha qilmaydi”

³⁵ Розенталь А., В.Теленкова С.А. Большой энциклопедический словарь. М.: 2000, -С.588. (“Katta ensiklopedik lug‘at”da “paremiya” tushunchasiga berilgan ta’rif quyidagicha: “Paremiya - ma’lum tilda so’zlashuvchilarning ongida turg’un, “qo’llanish uchun tayyor holda bo’lgan” o’rnashib qolgan uslubiy bo’yoqli nutq vositasidir. Shuning uchun u ekspressiv va obrazli, muayyan til mazmuniga ega bo’lgan ifoda uchun juda “qulay” belgi hisoblanadi” Shtampga kelinadigan bo’lsa, u “rangsiz leksik ma’no va ekspressiv (ta’sirchan)ligi o’chgan ifodadir”).

“Maqollar to‘plami – xalqning tajribaviy donishmandligi majmuasi, irimlar, nolish va nolalar, yig‘i va hayqiriq, quvonch va shodliklar, g‘am va alam, tasallidir; Maqollar – xalq zakovatining rangi, xalq haqiqati, hech kim so‘roq qila olmaydigan o‘ziga xos hakam”³⁶

V.I.Dal xalqni ideallashtirmaydi. U maqollarda “xalq donishmandligi xalq ahmoqligi bilan, aql pastkashlik, yaxshilik yomonlik, haqiqatni yolg‘on bilan birlashishi lozim”ligini ishonch bilan ta’kidlaydi”

Aynan xalqchillik xususiyati maqolning tub mazmuni, ya’ni undagi so‘zlarning har doim ham to‘la tushunilmaganligini ko‘rsatadi.

Xalqchillik alomati maqolni hikmatli so‘zlardan ajratib turadi. Aforizm (hikmatli so‘z),(grekcha aphorismos – naql, hikmatli so‘z) – muallifning ixcham, lo‘nda shaklda ifodalangan, aniq ifodaviy va kutilmagan xulosa xususiyati bilan farqlanib turuvchi umumlashgan, chuqur fikridir. Aforizm maqol singari isbotlamaydi, aniq dalillar ko‘rsatmaydi, original ta’rif bilan ongga ta’sir etadi. Aforizm aytilayotganlardan ortiqrog‘ini o‘zida mujassam etadi. Aforizm maqoldan muallifning aniqligi va ma’lumligi bilan farq qiladi.³⁷

“Russ tili.Ensiklopediya” lug‘atida bu atamaga shunday ta’rif beriladi: “voqelikdagi biror bir hodisasi haqidagi umumlashgan va tugallangan fikrni ixcham tarzda aks ettiruvchi turg‘un ibora (naql) deyiladi.”³⁸

2. Kelib chiqishining qadimiyligi va qo‘llanilishining dolzarbligi. Maqollar yuz yillar, ming yillardan buyon mavjud. Insonning aql-zakovati atrof muhitdagi hodisalarni kuzatadi, uning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni anglaydi. Inson zakovatining bunday yaratuvchilik faoliyati natijalari maqollar deb nomlangan qisqa, lo‘nda jumalalarda mujassamlanadi. Maqollar alohida shaxslar tomonidan emas, o‘sha tilda gaplashuvchilarning barchasi tomonidan o‘zlashtiriladi (bunda maqollarning xalqchilligi yaqqol namoyon bo‘ladi).

³⁶ Даль В.И., Пословицы русского народа;М.:1984,-С.7.

³⁷ Краткий словарь литературоведческих терминов, 1978.-С.14.

³⁸ Энциклопедия. Русский язык.. М.:1997, –С.42.

“Ammo bu uning tarixidagi eng muhim narsa emas. Muhimi maqolni yuzaga keltirgan avlodlar, ularning hayot tarzi va tafakkuridir. Abadiy metaforalarda yashiringan maqollar asrlar osha yashaydi, kerak bo‘lganda, xuddi urug‘ misoli bahor kelishi bilan unib chiqadi, chiroyli gullaydi, keyin kelajak avlodlarga yoyilish qalblarga urug‘ sochadi, siqilgan prujina, xalq fantaziyasidagi o‘limsiz qush singari qanot yozadi”

lari unga hamdardlik bildirib boshlashdi. Shunda chol ularga shunday javob Masalan xitoy tili maqollarida qadimiy til ya’ni xitoy tilida “Venyan” tilidan yetib kelgan maqollar uchraydi.

塞翁失马，安知非福 *sai weng shi ma an zhi fei fu*

Tarjimasi: Chol otini yo‘qotdi, lekin buni yahshilikka deb tushundi.

Bahtsizlik bahtga yetaklashi mumkin. Ya’ni yomonliksiz (qiyinchiliksiz) yahshilikka yetishib bo‘lmaydi. Qadimgi xitoy maqoli bo‘lgan ushbu maqolning kelib chiqish tarihi shunday: Xitoy chegarasidan uzoqda bo‘lmagan yerda yashaydigan bir cholning oti yo‘qolib qoladi. Cholning qo‘shnilari hadardlik bildiradilar. Chol aytdi: “Kim bilsin balki bu yahshilikkadur” deydi. Haqiqatdan, ko‘p o‘tmay cholning otibir o‘zi emas, balki yana bir ot bilan qaytib keladi. Shunda qo‘shnilar cholni bu omadi bilan tabriklay boshlashadi. Chol javob qaytaradi: “Kim bilsin, balki bu yomonlikkadur” deydi. Ko‘p o‘tmay cholning o‘gli yangi otni quvib o‘taman deb yeqilib, oyog‘ini sindirib oladi. Qo‘shnilar yana cholga hamdardlik bildirishsa chol: “Kim bilsin-balki bu yahshilikka bo‘gandur” deydi. Bir yil o‘tib, dushmanlar Xitoyga hujum qiladilar. Urushda deyarli barcha yigitlar halok bo‘ladi. Cholning o‘g‘li esa singan o‘yog‘i tufayli jangda qatnashmay omon qoladi. Shundan so‘ng cholning ushbu gaplari maqolga aylanadi.

Kelib chiqishiga ko‘ra qadimiy bo‘lishiga qaramay, maqollar hech qachon bosma qolipga aylanmaydi. Agar maqol o‘z o‘rnida qo‘llaniladigan bo‘lsa, uning qo‘llanilishi har doim dolzarb bo‘ladi, chunki maqol keng matnni o‘zida mujassam eta oladi.

3.Metaforiklik. (o'hshatish,ko'chirish degani.Bir predmet nomini boshqa predmet nomiga-ularning o'rtasidagi o'hshashlik asosida ko'chishidir.)

Maqollarning ma'no-mazmuni ularni tashkil etuvchi komponentlar (so'zlar) ma'nosidan bevosita "kelib chiqmaydi, u ma'no bo'lak obraz orqali bog'liq bo'ladi". Masalan: 黑狗洗不白,秉性难移 *hei gou xi bu bai bing xing nan yi*
Tarjimasi: "Qora kuchukni yuvib oqartira olmaysan", deyilmoqchiki (ya'ni, "qancha urinma yomon narsa yaxshi bo'la olmaydi,tabiatan berilgan narsani o'zgartirib bo'lmaydi").

天下乌鸦一般黑 *tian xia wu ya yi ban hei*

Tarjimasi: Hamma qarg'a bir hil qora bo'ladi. Muqobili: Qayerga borsang qarg'aning qulog'i to'rt./ Ho'roz hamma yerda bir hil qichqiradi.

Xitoy tili maqolida qo'llangan "qarg'a" obrazi o'hshatish asosida tuzilgan. Qarg'a obrazi odam,amaldor yoki bir hil predmet va b oshqa narsa nazarda tutiladi.Haqiqattan qarg'a ham hammasi qora rangda bo'ladi.Shuning uchunmi xitoy xalqi ushbu maqolda o'hshashlik asosida aynan qarg'a obrazi bilan ko'chgan. Xalq so'zlari (maqollar) ko'chma ma'noda olingan, yoki so'zlarning o'z ma'nosi bilan ko'chma ma'nosi birikuvidan tashkil topadi. Har ikkala holatda ham ko'chma ma'no xalq maqollarida noodatiy, o'ziga xos bo'ladi. Ulardagi ma'no kundalik nutqdagi ma'nodan farqli, faqat maqollargagina xos bo'ladi ³⁹

Ko'chma ma'nodagi maqollar nafaqat o'zbek tilida balki xitoy tilida ham mavjud.

Quyidagi maqollar ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda bo'lishi mumkin:

不下水,一辈子不会游泳 ⁴⁰ *bu xia shui yi beizi bu hui you yong*

O'zbekcha muqobili: «***Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi***»

(ko'chma ma'nosi: "Tavakkal qilmasdan kerakli natijaga erishib bo'lmaydi").

Xitoy tilidagi maqolning tarjimasi: (suvga tushmasang, bir umr suzishni bilolmaysan). Demak har ikki tildagi maqolda ham mazmun biror narsadan qo'rqsang o'sha ishni qilolmaysan deyilmoqda. O'zbek tilida chumchuqdan

³⁹ Аникин В.П., Русские пословицы и поговорки;М.: 1988. –С.156.

⁴⁰ Li ya mei,Ozod Ochilov.O'zbekcha-Xitoycha maqol,matal,iboralar lug'ati. T.:2010,-B.144.

qo'rqsang deyilsa, xitoy tilida suvga tushishdan qo'rqsang soz'lari, ikkinchi qismda esa tariq ekmaydi sozlari ma'nosini xitoy tilidagi maqolda suzishni o'rgana olmaysan so'zlari ifodalab kelmoqda.

单丝不成线，独木不成林 *dan si bu cheng xian, du mu bu cheng lin*
(Tarjimasi: bir tola ipak bo'lolmaydi, bitta daraht o'rmon bo'la olmaydi)

Muqobil variant: **“Yolg'iz otning changi chiqmas”**

Maqolni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak: O'zbek tilida mazmunning ifoda vositasi sifatida ot olingan, xitoy tili maqolida esa ipak va ikkinchi qismda daraht soz'lari ma'noni ifodalab kelgan. Ushbu maqollarning ko'chma ma'nosi: “Yakkam-dukkan narsaning borligi tub qonuniyatni isbotlay olmaydi

O'zbek xalqi “Yolg'iz otdan chang chiqmas” deyilsa Xitoy xalqi “Bir tola ipak ip bo'lmaydi, bir darahtdan o'rmon bo'lmaydi” deyishar ekan. Xitoy xalqida ushbu maqolning yana boshqa variantlari bo'lib, ular:

单丝不成线，一麦不成面 *dansi bu cheng xian, yi mai bu cheng mian* Tarjimasi: birgina ipak tolasi ip bo'la olmaydi, bir (boshqoq) bug'doy un bo'lmaydi. Bu maqolda yuqorida (avvalgi) keltirgan maqolimizdan faqat ikkinchi qismi o'zgargan, ya'ni birinchi variantda bitta daraht o'rmon bo'la olmaydi deyilgan bo'lsa maqolning ikkinchi variantida (boshqoq) bug'doy un bo'lmaydi so'zlari mazmunni ifodalagan.

独花不成春 *du hua bu cheng chun* bir gul bilan bahor bo'lib qolmaydi.

“Har bir o'rdak o'z botqog'ini maqtaydi”

人人都说自己的家乡好 *ren ren dou shuo ziji de jia xiang hao* Tarjimasi: Hamma ham o'z uyini yahshi deydi.

Ko'chma ma'nosi: Har qanday kishi o'zi yashayotgan joyini, o'ziga tegishli bo'lgan narsasini, o'zining bolasini maqtaydi, ya'ni:

“Har kimniki o'ziga ko'rinadi oy ko'ziga”.

O'zbek maqolida o'rdak so'zi xitoy tilidagi maqolda odam so'zi ma'no-mazmun vazifasini o'tab, botqog'i so'zi xitoy tilidagi uy so'zi vazifasini o'tayapti.

“Suv ko'rmay, etik yechma”

不见兔子不撒鹰 *bu jian tuzi bu sa ying*

(Tarjimasi: Quyonna ko'rmay burgutni tashlama)

(Ko'chma manosi: Ishonch hosil qilmay oldindan qo'l urib qoymaslik, Yo'q narsaga ovora bo'lmaslik)

Ikki tildagi maqolning qiyoslaydigan bo'lsak: o'zbek tilidagi suv – (xitoy t.)quyon so'zi berayotgan ma'noni ifodalab kelgan, etik yechma- (x.t)burgut tashlama so'zlari bir hil mazmunni *ifodalab* kelgan.

无风不起浪，无火不起烟 *wu feng bu qi lang, wu huo bu qi yan*

So'zma so'z tarjimasi: Shamol bo'lmasa to'lqinlanmaydi, O't bo'lmasa tutun chiqmaydi. O'zbekcha maqollar orasida muqobili:

“Shamol bo'lmasa darahkning uchi qimirlamaydi”

Ko'chma ma'nosi: Hech qanday voqea hodisa sababsiz ro'y bermaydi. Hech narsa o'zidan o'zi sodir bo'lmaydi.

纸里包不住火 *zhi li bao bu zhu huo*

“Cho'g'ni o'rab, berkitib bo'lmas”

Tarjimasi: olovni qog'ozga o'rab bo'lmaydi.

Majozan: qing'ir ishni yashirsang baribir oshkor bo'ladi. Qanchalik yashirma baribir berkitib bo'lmasligi haqida ta'kidlanayapti.

Metoforiklikning xususiyati maqolni **maksima**dan ajratib turadi.

Maksima – mantiqiy yoki axloqiy prinsip, qoida, hatti-harakatning me'yorini bildiruvchi til formulasidir. Masalan,

少说话，多做事 *shao shuo hua, duo zuo shi*

Tarjimasi: Ko'p gapirma, ko'p ish qil.

Muqobili: **“Tiling bilan shoshilma, ishing bilan shoshil”**

不怕不知，就怕不学 *bu pa bu zhi, jiu pa bu xue*

Tarjimasi: Bilmaslikdan qo'rqma, o'rganmaslikdan qo'rq

不怕官，只怕管 *bu pa guan, zhi pa guan*

Tarjimasi: Xondan qo'rqma, bekdan qo'rq (Amaldordan qo'rqma, qo'l ostidagilardan qo'rq.)

不是你的财，别落你的袋 *bu shi ni de cai, bie luo ni de dai*

Tarjimasi: Birovning haqqini cho'ntakka urma.

Muqobili: "Birovning haqqiga hiyonat qilma"

不起两头马，不喝两家茶 *bu qi liang tou ma, bu he liang jia cha*

Tarjimasi: Ikki kishining otini minma, ikki uyning choyini ichma

Muqobili: "Ikki qirg'oqqa talpingan cho'kib ketar"

Agar maqol har doim metaforik bo'lsa, maksima faqatgina to'g'ri ma'noda qo'llaniladi. Maksimaning ma'lum ma'nodagi qat'iyligi bu bilan bog'liq. Maqoldan farqli o'laroq maksimaning ma'nosi bevosita maqolni tashkil etuvchi so'zlardan kelib chiqadi.

4.Majoziylik. Bunday xossa oldingi ikkitasi bilan bevosita bog'liqdir. Maqolda har doim majoziylik mavjud. Agarda maqolning so'zma-so'z ma'nosi mazmunning yuzaki tuzilishi bo'lsa, majoz – maqolning eng teran tuzilishidan iborat. Masalan, 老马识途，老人通世故 *lao ma shi lu shu, lao ren tong shi gu* "Qari ot ekinni payhon qilmaydi".

Tarjimasi:qari ot yo'lni biladi,qari odam dono bo'lar.

Maqolining teran ma'nosi quyidagicha: "Keksa, tajribali kishi xatoga yo'l qo'ymaydi va qanday kerak bo'lsa, shunday ish tutadi."

Majoziylikning xossasi maksimalar va boshqa aforizmlarga xos emas.

5. Ko'p ma'nolilik va umumlashtiruvchi xarakter. Maqolning bunday xossasi oldingisi bilan bevosita bog'liq.

Maqol jumla, nutq hodisasi oddiy hodisani tashqi tomondan aks ettiradi, aniq dalil yoki aniq vaziyatni bildiradi. Qiyoslang: masalan,

一瓶不响，半平晃荡⁴¹ *yi ping bu xiang, ban ping huang dang*

Tarjimasi:To'la shishadan shovqin chiqmaydi,yarim shishadan shovqin chiqadi (shitirlaydi).

Ya'ni: Bo'sh idishdan shovqin ko'proq chiqadi.

⁴¹王树山. 俗谚.北京.: 2008, 页 70.

To'g'ri ma'noda qo'llanilgan jumla muayyan predmetga xos xususiyatni to'g'ri aks ettiradi. Bu holatda ko'chma ma'no yuzaga chiqadi. Maqol obrazi asosida umumlashma ma'no ifoda etilishini ta'minlovchi jumlaning ko'pma'noliligi yuzaga keladi: "Ko'p gapirgandan foyda kelmaydi."

Umumlashgan fikr ko'pincha aniq muqobil i yordamida ifodalanadi. Masalan:

"Osmondagi turnadan qo'lda turgan chittak yaxshi" –

现实胜于空想 *xian shi sheng yu kongxiang* Tarjimasi: hom hayoldan ko'ra oldingdagi haqiqat yaxshi.

("Katta narsa haqida orzu qilgandan ko'ra, oz bo'lsa-da haqiqatan biror narsaga ega bo'lgan yaxshi").

O'zbek maqolimizda mazmunning ifoda vositasi- turna va chittak bo'lsa xitoy maqolida hom hayol hamda haqiqat so'zlari bilan yoritilgan. Turna chittakdan yirikrok, qadrliroq bo'lgani sababli katta narsani orzu qilib o'tirgandan ko'ra oldingdagi bor chittak yaxshi bo'lgani uchun ushbu qushlar obrazi yaratilgan. Xitoy maqolida esa

"Bitta tirraqi buzoq butun podani bulg'aydi" –

Xitoycha muqobili:

一条鱼腥一锅汤 *yi tiao yu xing yi guo tang*

Tarjimasi: Bir baliq bir qozon sho'rva ta'mini buzadi

"Bitta yomon odam butun jamoani buzadi".

O'zbek tilida ushbu ma'noni ifodalash uchun buzoq obrazi qo'llanilgan, sababi, o'zbek xalqi chorvadorchilikka ixtisoslashgan hamda cho'pon podani o'tlatgani chiqqanda butun podaga yo'l boshchilik qiladi, boshqaradi. Ammo yosh buzoq hali o'yinqaro va quloqsiz bo'lgani uchun butun podani bulg'ashini deyarli barcha o'zbek xalqi ko'rgan. Shuning uchun maqolni aynan buzoq obrazi bilan ifodalaganlar. Xitoy maqolida esa ushbu mazmunni "baliq" obrazi ifodalagan. Chunki Xitoy xalqi dengizlari dengiz mahsulotlariga boy, hamda xitoyliklar aynan baliqli taomlarni iste'mol qilishni hush ko'radilar. Ayniqsa baliqni taom qilishdan

avval uni tirik holatda ko'rishni juda muhim hisoblab, barra baliqdan bo'lgan taom mazzaga mazza qo'shadi deb hisoblaydilar.

4. Nasihatomuzlik. Maqolning bunday xususiyati shundan iboratki, u ijobiy (nima qilish kerak) va salbiy (nima qilmaslik kerak) bo'lishi mumkin bo'lgan baholovchi-**axloqiy** tavsiyasini o'z ichiga oladi. Qiyoslang:

趁热打铁 *chen re da tie* Tarjimasi: temirni issiqligida ur.

O'zbekchada: - Temirni qizig'ida bos.

临渊羡鱼，不如退而结网 *lin yuan xian yu, bu ru tui er jiewang*

Tarjimasi: Yonida turgan baliqqa qarab ko'z olaytirgandan ko'ra to'r tashlab tut.

O'zbekcha muqobili: "Birovning narsasiga ko'z olaytirma".

不摸锅底手不黑，不拿油瓶手不腻 *bu mo guo di shou bu hei, bu na you ping shou bu ni*

Tarjimasi: Qozon tagini ushlamasang qo'ling qora bo'lmaydi, yog' shishani olmasang qo'ling yog' bo'lmaydi.

Ya'ni o'zbekcha maqolda muqobil varianti "Birovga yomonlik qilsang o'zinga omonlik kutma"

不怕慢，就怕站 *bu pa man jiu pa zhan*

Tarjimasi: sekin yurishdan qo'rqma, to'htab qolishdan qo'rq. Ya'ni ishni sekin bajarsang ham to'htab qolmagan yahshi, umuman yo'q bo'lgandan ko'ra sekin bo'lsada kam bo'lsada bor bo'lgani yahshi.

Misol keltirilgan barcha maqollarda tasdiq yoki inkor modalligi ro'y-rost ifodalangan.

Tasdiq yoki taqiq ma'nosi yashirin yoki oshkora ifodalanishi mumkin. Masalan: a) tasdiq modallik:

今日事，今日毕 *jin ri shi jin ri bi*

Tarjimasi: Bugungi ishni bugun bitir. O'zbekchada maqolning muqobil variant: "Bugungi ishni ertaga qoldirma"

事到临了见分晓 *shi dao lin le jian fenxiao*

Tarjimasi: Ish bitgandagina hisob qil (oldindan hursand bo'lma).

Jo‘jani kuzda sanaymiz (*“Hamma ishni o‘z vaqtida bajar”*).

b) Inkor qiluvchi modallik:

贪多反无所得 *tan duo fan wu suo de*

Tarjimasi: Ko‘pini olmoqchi bo‘lsang, aksincha, hech narsaga erisha olmaysan.

O‘zbekcha muqobil variant: “Ikki quyoning orqasidan quvsang birontasini ham tuta olmaysan” (“Birdaniga bir nechta ishni bajarishga oshiqma”).

受人之赠，勿计好歹 *shou ren zhi zeng, wu ji hao dai*

Xitoycha maqolning tarjimasi: Sovg‘a olsang hisob kitob qilinmaydi

Maqolning o‘zbekcha muqobili: “Hadya otning tishiga qaralmaydi”.

(“Qimmatidan qat‘iy nazar har qanday sovg‘ani qabul qil”).

心急吃不了热豆腐⁴² *xin ji chi bu liao re dou fu*

Tarjimasi: Shoshgan issiq dovfuni yeyolmas

Ya‘ni ushbu maqolning mazmuni o‘zbek maqolning ushbu variantiga mos keladi: “Shoshgan qiz erga yolchimas”

Nasihatomezlik – maqolning spesifik xususiyatidir. Topishmoqlar, hikmatli so‘zlar, tez aytishlar, iboralar bunday xususiyatga ega emas.

6. Obrazlilik, nazmiylik. Maqol o‘zining obrazlilik bilan tavsiflanuvchi bir san‘at asaridir. Obrazlilik maqol nazmida muhim ahamiyatga ega. Obrazlilikni yaratish uchun quyidagi vositalar qo‘llaniladi:

1) **metafora** (O‘hshatish, ko‘chirish. Bir predmet nomini boshqa predmet nomiga ular o‘rtasidagi o‘hshashlik asosida ko‘chishidir):

不经冬寒，不知春暖 *bu jing dong han bu zhi chu nuan*

Tarjimasi: Qish qahrini totmasang, bahor illiqligin qayerdan bilasan.

Majozan: Achchiq totmagan shirin qadri qayerdan bilsin.

2) **sinekdoxa** (sinekdoxa asosida nom ko‘chish. Yunoncha so‘z bo‘lib, nazarda tutush, qism orqali butunni, butun orqali esa qismini ifodalash sanaladi. Bu usulda ham predmet orasidagi aloqadorlik yotadi. Shu bois metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida baho berish mumkin. (Metonimiya-qayta nomlash)):

⁴²王树山, «俗谚». –北京.: 2008, 页 32.

打蛇先打头 *da shi xian da tou* Ilonni ursang boshiga ur

Majozan: Yomondan qutulmoqchi bo'lsang avval ashaddiy(kuchli tomonidan) ushla.

Ilon obrazi bu yerda qayta nomlash ya'ni metonimiya hisoblanadi. Ilon obrazini dushman ma'nosida, salbiy narsa-predmet ma'nosida qo'llaganlar.

打开天窗说亮话 *da kai tian chuang shuo liang hua*

Tarjimasi: Osmon derazasini ochib rostini so'zlamog

Osmon derazasi so'zi shipdagi yoritgich ma'nosini beryapti.

Haqiqatni ochib tashlash.

3) jonlantirish:

锅嫌水壶黑 – 不知自丑 *guo xian shui hu hei bu zhi zi chou*

Tarjimasi: Qozon choygunga qorasan debdi-o'zini qoraligidan behabar.

Majoziy ma'noda: Avval o'zingga boq keyin nog'ora qoq. /

G'alvir bir o'zingda ikkita teshik bor deb choydushning ustidan kulibdi.

无风不起良 *wu feng bu qi liang*

Tarjimasi: Shamol bo'lmasa to'lqin turmaydi

“Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi”;

4) qiyos:

湖理有着大鲤鱼，不如桌上小鲫鱼 *hu li you zhe da li yu, bu ru zhuo shang xiao ji yu*

Tarjimasi: Ko'ldagi katta sazan baliqdan stol ustidagi kichik karas baliq yahshiroq.

Ushbu maqolda qiyosiy usulda tuzilgan bo'lib, 不如 *bu ru* so'zi qiyosiy usul bo'lib, ..ga yetmaydi, ..chalik bo'lmaydi.

百闻不如一见，百见不如一干 *bai wen bu ru yi jian, yi jian bu ru yi gan*

Tarjimasi: Ming bor eshitgandan bir bor ko'rgan yahshi, bir ko'rgandan amalda bajarib ko'rgan yahshi.

Qiyosiy usulga maqolda 不如 *bu ru* so'zi qo'llanilgan.

恶人心，海底针 *e ren xin hai di zhen*

Johilning yuragi dengiz tubidagi ignadir

5) **antiteza:**

美言美语受人敬，恶语恶言伤人心 *mei yan mei y shou ren jing,e yu e yu shang ren xing*

Tarjimasi: Yahshi gap hurmat oshirar,yomon gap nafrat.; Hurmat va nafrat so'zlari antiteza.

学则明，不学则暗 *xue ze ming bu xue ze an*

So'zma so'z tarjimasi: Oqigan yoruqlik,o'qimagan qorong'ulikdir. Ushbu maqolda yorug'lik bilan qorong'ulik antiteza.

好话一句三冬暖，恶语伤人六月寒 *hao hua yi ju san dong nuan ,e yu shang ren liu yue han*

Tarjimasi: yahshi so'z uch bahordek illiq, yomon gap 6 oy qishdek sovuq. Majozan: "Yahshi so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i".

6) **tavtologiya:**

善有善报，恶有恶报 *shan you shan bao,e you e bao*

Tarjimasi: mehribonlik qilgan mehribonlik ko'radi, yomonlik qilganga yomonlik qaytadi.

种瓜得瓜，种豆得豆 *zhong gua de gua,zhong dou de dou*

Tarjimasi: Qovoq eksang qovoq o'rasan, loviya eksang loviya o'rasan

O'zbekcha muqobili: Nima eksang shuni o'rasan

7) **qofiyalar:**

和气生财，忤逆生灾 *he qi sheng cai,wu ni sheng zai*

"Yahshi so'z pul keltirar yomon so'z –kul"

Xitoycha maqol ikki tarkibli maqol bo'lib ikkala tarkibining ohirgi so'zlari ohangi qofiyadoshdir,ya'ni *cai, zai* so'zlari bilan tugallanyapti.Ikkala bo'g'in ham ai yunmulari bilan tugagan.

8). **Ritmik tuzilish:**

公说公有理，婆说婆有理 *gong shuo gong you li po shuo po you li*

Tarjimasi:qaynota o'zinikini ma'qullasa,qaynona o'zinikini ma'qullar

Ya'ni Har kimning gapi o'ziga ma'qul

O'zbekcha muqobili: "Har kimniki o'ziga oy ko'rinadi ko'ziga"

9). **Hissiy butunlik.** Maqollar nafaqat ular orasidagi fakt va bu faktlar orasidagi munosabatni, turmush qonun-qoidalarini ifodalaydi, balki insonlarning ularga bo'lgan munosabatini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Maqollarda turli his-tuyg'ular ifodalanadi, masalan:

成也妻，败也妻 *cheng ye qi bai ye qi*

Tarjimasi: (bo'ldiradigan ham ayol, yo'qqa chiqaradigan ham ayol)

Ushbu maqolning o'zbekcha muqobili: "Erni er qiladigan ham ayol, qaro yer qiladigan ham ayol"

Maqollarda kesatish ham tez-tez uchraydi, masalan:

打黄牛，惊黑牛 *da huang niu, jing hei niu*

Tarjimasi: (Sariq sigirni uradilar, qora sigirni qo'rqitadilar)

Majoziy ma'noda: Ko'zlangan odamga gapirilishi kerak bo'lgan gapni boshqa aybi yo'q odamga tanbeh berish orqali yetkazish. Xitoy maqolida maqsad sariq sigir (aybi yo'q, yahshi sigir ma'nosida) ga tanbeh berilyapti, maqsad qora sigirni (ayb qilgan, quloqsiz yoki yomon) ni qo'rqitishdir. Qora va sariq sigirlar obrazi kesatish funksiyani bajarib, odamni nazarda tutgan.

O'zbek tilida muqobili: "Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit"

狗咬耗子，- 多管闲事 *gou yao hao zi duo guan xian shi*

Tarjimasi: Kuchuk sichqonga tashlanibdi—o'ziga taaluqli bo'lmagan ishga burnini suqish.

Maqollarda ifodalanayotgan hissiy- ekspressiv munosabatlar tilning kundalik-og'zaki uslubiga to'la mos keladi.

Bunday xossa maqolni hikmatlar va maksimalardan ajratib turadi.

9. **Qisqalik, ixchamlilik.** Maqolda fikr qisqa va aniq ifodalanadi; sintaktik jihatdan esa maqollar gap doirasidan tashqariga chiqmaydi (sodda yoki qo'shma gap shaklida). Shu jihati bilan maqol ertaklardan farq qiladi.

10. Struktur-semantik tugallik. Bu xossa maqollarni paremiyalarning eng yaqin bo'lgan matal (ibora)lardan farqlab turadi. O'zining grammatik tuzilishiga ko'ra maqollar tugallangan gapni (sodda yoki qo'shma) ifodalaydi, iboralar esa gap bo'laklari yoki tugallanmagan gaplardir. G. L. Permyakov yopiq gap va *ochiq gap deya ularni* ikki turga ajratishni taklif etadi. U "Birgina doimiy bo'lakdan iborat bo'lgan va shuning uchun nutqda hech o'zgarmaydigan hamda to'ldirilmaydigan, butunlay qoliplashgan gaplar"ni yopiq gaplar deb ataydi, "Butunlay qoliplashmagan, ya'ni doimiy bo'laklardan iborat bo'lmagan va nutqda to'ldirilib turadigan gaplar"ni ochiq gaplar deb ataydi ⁴³

Bundan tashqari, barcha maqol-matal gaplar umumlashma darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi. "Birinchi turdagi gaplarni *xususiy* deb atash mumkin". Istisno holatlarda ular biror bir muhim shaxsiy voqea-hodisalarni anglatadi. Ikkinchi tur gaplar *umumlashgan* gaplar deyiladi. Ularda "ma'lum bir qonun-qoida, doimiy qaytariladigan voqea-hodisa, qoida yoki odat haqida gap boradi. "Xususiy gaplarga barcha ochiq gaplar (ya'ni matallar) va yopiq gaplardan bir qismi (ya'ni maqollar) kiradi, umumlashganlarga esa faqatgina yopiq gaplar kiradi". Tilshunoslik ensiklopedik lug'atlarida maqol va matallarni tasniflashga boshqacha yondashilgan. Qiyoslang:

"Maqol – xalqning amaliy tajribasi va ma'lum bir hayotiy hodisalarni baholash asosida yuzaga kelgan, nutq jarayonining ritmik va grammatik mustahkam tuzilgan ifodasidir. Nutqda matallardan farqli o'laroq mustaqil hukm vazifasida namoyon bo'ladi". ⁴⁴

Maqol paremiologik birlik sifatida boshqa turdagi paremiyalar bilan nafaqat farqli xususiyatlar, balki umumiy xususiyatlarga ham egadir.

1. Qoliplashganlik. "Qoliplashganlik atamasi ostida u yoki bu matnning tayyor holda mavjud bo'lgan tegishli muloqot vaziyatida tub o'zgarishlarsiz konstruktiv va semantik butunlik singari global qabul qilinish xossasi tushuniladi."

⁴³ Пермяков Г.Л., От поговорки до сказки(Заметки по общей теории клише) М.: 1970,-С.9.

⁴⁴ Русский язык. Энциклопедия, М.:1997, -С.355.

Bu planda “**Qoliplashganlik** atamasiga turgʻunlik, butunlik, boʻlinmaslik va b. sinonim boʻladi. Aynan bunday xususiyatlar maqol va frazeologizmlar uchun umumiy hisoblanadi. “Biroq maqolning maʼno tabiati frazeologizmdan boshqacha: gap-maqol vositasida ifodalangan fikrning asosida hukm yotadi, frazeologizmning leksik maʼnosi negizida esa u yoki bu tushuncha yotadi”⁴⁵

2. Aforistiklik. Baʼzi tadqiqotchilarning fikriga koʻra, “Aforistiklik xusuiyati deganda, fikr(gap)ning bevosita uning matnida eksplisit tarzda ifodalangan informatsiyadan (maʼlumotdan) koʻra ancha keng informatsiya (maʼlumot)ni implisit tarzda qabul qilish qobiliyati tushuniladi. Bunday qobiliyat lingvistik kontekst chegarasidan chiquvchi murakkab assotsiativ munosabatlarga tayanadi”⁴⁶ Bizning nuqtai nazarimizga koʻra bu taʼrifda aforistiklik semantik ikkiplanlilik (yoki koʻpplanlilik) bilan qorishib ketgan koʻrinadi.

Aforistiklik aniqlik, ixchamlik va qisqalikni koʻzda tutadi. Solishtiring:

3. Utilitarlik. Maqollarda xayotiy-amaliy maʼno aks etadi. «Bu maslaxatlar, maishiy koidalar, ob-xavoni kuzatishlar, boʻysunilishi kerak boʻlgan ijtimoiy tartiblarning ifodalanishi, bir soʻz bilan aytganda, barcha koʻrinishdagi ish hayoti. Kundalik turmush va ijtimoiy tartiblar maqollarda bilvosita aks etmagan, toʻgʻri bevosita aks etgan»⁴⁷

Maqollarning pand-nasihat xarakteri bu xossa bilan bogʻliq.

Paremiyalarning barcha turlari, nazarimizda, utilitarlik xususiyatiga ega: ularning har birida kishilarning amaliy-hayot tajribalari aks etadi.

4. Antropotsentriklik. Makol har doim insonga murojaat qiladi. Maqol insonga yashashni oʻrgatadi. Unga biron hatti-harakatni amalga oshirishni buyuradi yoki uni man etadi. Maqollarda hayvonot yoki narsa nomi ostida inson tushuniladi. Masalan:

老马识途 *lao ma shi tu* - Qari ot yoʻldan adashmaydi

Oʻzbekcha muqobili: “Qari ot ekinni payhon qilmaydi”;

⁴⁵ Фразеологический словарь русского языка, М.:1068, -С.16.

⁴⁶ Остроумов Н. Пословицы и поговорки туземного населения Туркест. края. Т., 1891, -С.37.

⁴⁷ Аникин В, Круглов А, Русское народное поэтическое творчество. Л: 1983, -С.117.

姜还是老的辣 *jiang haishi lao de la*

Tarjimasi: Imbirning qarisi achchiq bo'ladi.

Majozan: Qarini aldab bo'lmas. Inson – imbir nomi ostida tushuniladi.

Bu xossa, nazarimizda, barcha paremiyalarga xos, ammo maqolda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Antropotsentriklik va badiiy matnda inson konsepsiyasi to'g'risida N. M. Churilina, N. V. Chesnokova va O. V. Botayeva larning ilmiy ishlariga qarang.

Shu tarzda maqol o'zining tashqi soddaligiga qaramay murakkab hodisa hisoblanadi. Bir paremiologik birlik o'laroq u mantiq, semiotika, lingvistika, folkloristika va boshqa fanlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin.

Maqollar boshqa barcha paremiyalar singari quyidagi xossalarni namoyon etadi: 1) qoliplashganlik; 2) aforistiklik; 3) utilitarlik; 4) antropotsentriklik.

Paremiyaning bir spesifik turi bo'lgan maqollarga xos bo'lgan xossalar quyidagilardir: 1) xalqchillik; 2) kelib chiqishining qadimiyligi va dolzarblik; 3) metaforiklik; 4) majozilik; 5) ko'pma'nolilik va umumlashtiruvchi xarakter; 6) nasihatomezlik; 7) obrazlilik; 8) hissiy to'lalilik; 9) ixchamlik; 10) struktur-semantik tugallik.

Ana shu xossalarga suyangan holda quyidagi maqollarni taklif etamiz: “Maqol – **obrazli**, **majoziy** va **nasihat** xarakteriga ega bo'lgan qoliplashgan paradigmatic shakldagi struktur va semantik jihatdan tugallangan ixcham xalq so'zidir”.

II BOB. XITOIY VA O'ZBEK MAQOLLARINING SEMANTIK TAHLILI

Maqollarning mazmuniy tomoni haqiqatan ham cheksiz. Bu dalil qiyoslanayotgan o'zbek va xitoy tillariga baravar tegishlidir. Maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, jamiyatning turmushi, madaniyati, hayoti va tarixini o'zida aks ettiradi. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan o'ziga xos, insondagi eng axloqiy sifatlar ma'qullanadigan, ma'naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o'ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'pchilik maqollar insonni to'g'ri harakatlanishga undaydi: ular insonga nima qilish kerak-u, nima qilmaslik kerakligini ko'rsatib turadi, salbiy hatti-harakatlardan asraydi. O'zbek va xitoy tillaridagi maqol zahirasi mavzu guruhlari, deyarli bir-biriga mos keladi va ularni qiyosiy nuqtai nazardan tahlil etish maqsadga muvofiq.

2.1§ O'zbek tili maqollari semantikasi

Har bir xalqning maqollar zahirasi o'ziga xosdir. O'zbek xalq maqollari xalq donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O'zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda oxirigacha ishlanmagan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik "O'zbek xalq maqollari"⁴⁸ akademik to'plamida maqollar alifbo tartibida berilgan. "Alfavitli tasnif" to'plamida "Balandparvoz so'zlar"⁴⁹ deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh. Shomaksudov va Sh. Shoraxmedovlar o'zlarining "Ma'nolar maxzani"⁵⁰ to'plamlarida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To'plam 20 ming maqolni o'z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

⁴⁸ O'zbek xalq maqollari. Toshkent.: 1987, B.27-30.

⁴⁹ Sarimsoqov B. "Balandparvoz so'zlar" Toshkent, 1986, B.30.

⁵⁰ Shomaksudov SH., Shoraxmedov SH. Ma'nolar maxzani. 2001, B.45.

Boshqa to'plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, "O'zbek xalq maqollari" to'plamida 30 predmetli-mavzu guruhi taqdim etilgan:

1) Vatan va vatanparvarlik haqida; 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida; 3) kollektivizm; 4) do'stlik va kelishmovchilik haqida; 5) fan va san'at haqida; 6) donolik va johillik haqida; 7) mardlik va insoniylik haqida; 8) jasorat va qo'rqoqlik haqida; 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida; 10) oila va yaqinlar haqida; 11) sevgi va sadoqat haqida; 12) kattalarni e'zoz qilish haqida; 13) kamtarinlik va tarbiya haqida; 14) qadr-qimmat haqida; 15) mehmon va mexmondorchilik haqida; 16) yaxshi so'z va ezgulik haqida; 17) rostgo'ylik va samimiylik haqida; 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida; 19) tejamkorlik haqida; 20) sabr qanoat, matonat haqida; 21) soflik, poklik haqida; 22) ishonch va umidsizlik haqida; 23) maqtanchoqlik va kibr haqida; 24) ochko'zlik haqida; 25) hayvonot haqida; 26) nasihat haqida; 27) majoziy maqollar; 28) pand-nasihat moqollari; 29) kambag'allik va muhtojlik: tarixy o'tmish haqidagi maqollar; 30) haqsizlikka qarshi yo'naltirilgan maqollar;

Predmetli –mavzuli guruhlarining bunga ohshash ro'yhatini "O'zbek xalq maqollari" to'plamida berilgan:

2.1.1. Vatanga, ona diyorga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbat.

O'zbek xalqi ona deb hisoblaydigan Vatanga bo'lgan chuqur va cheksiz muhabbatni o'z maqollari orqali ifodalaydi.

Ona yurtिंगoltin beshiging; Vatan uchun o'lmoq ham sharaf; Ona yurtिंगoltin beshiging; Ona yurtिंग omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas;

Agar yurt og'ir kunlarni boshdan kechirayotgan bo'lsa Vatanning vayronasi-umrning g'amhonasi; Vatanga falokat-o'zinga halokat.

2.1.2 Insonning mohiyati, ichki dunyosi

Maqollarda insonning ichki dunyosiga nisbatan bir xil bo'lmagan munosabat bildiriladi. Ba'zan maqollarda inson va uning fe'l-atvoridagi ijobiy jihatlardan

g'ururlanish ifodalanadi. Masalan: *Odam aqli – olmos; Odam bolasi – elning lolasi; Odam gavhar – qo'li gul; Odamning qo'li – gul.*

Boshqa hollarda maqollar (eskirgan) insonning ichki dunyosini salbiy tomondan xarakterlaydi, masalan: *Odam – odamga yov; Odam shaytoni – odam.*

Insonni turli yo'llar orqali bilib olish mumkin. *Odam – odamning ko'zgusi* maqolida bir insonning fe'l-atvorini bilib olish, boshqasining fe'lini bilib olishga yordam berishi haqida so'z boradi. Ruscha *Скажи, кто твой друг, и я скажу, кто ты* maqoli bilan taqqoslang (*Do'sting kim ekanligini ayt, men sening kimligingni aytay*).

Inson fe'l-atvorini uning yuzidan bilib olsa bo'ladi: *Odam yuzi – qalb oynasi.*

2.1.3. Boylik - kambag'allik

Xalq boylikka nisbatan ehtiyotkorlik bilan, ba'zan esa nafrat bilan munosabatda bo'lgan: *Boylik boylik emas, birlik – boylik; Boylik, boylik tubi – o'g'irlik.*

Shu bilan bir paytda kambag'allikka rahm bilan qaraydilar: *Kambag'allik ayb emas; Kambag'alning boyligi – tanining sog'ligi.*

5. Sog'lik

O'zbekistonda, butun Markaziy Osiyodagi kabi birinchi o'rinda sihat-salomatlikka e'tibor beriladi. Sihat-salomatliksiz normal hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi, bu maqollarda ham o'z aksini topgan: *Sog'lik – tuman boylik; Sog'lik – umrning garovi, uyqu – umrning darmoni; Salomatlik – tanga katta ne'mat.*

2.1.4 Yaxshilik – yomonlik (yaxshi – yomon)

Yaxshilik, ezgulik – bular yuksak ma'naviyat kategoriyalaridir. Bu maqollarda o'z tasdig'ini topgan, masalan: *Yaxshini ko'rmoq – jannat; Yaxshi maslahat – yarim baxt; Yaxshi xislat – go'zal fazilat.*

Ko'p maqollarda yaxshilik yomonlik bilan qarama-qarshi qo'yiladi: *Yaxshining ishi – atir, yomonning ishi – zahar; Yaxshining ishi – sano, yomonning ishi – g'avg'o; Yaxshining ishi – jannat, yomonning ishi – kasofat; Yaxshining ko'ngli – tog', baxilning ko'ngli – dog'; Yaxshi qo'shni - ota-ona, yomon qo'shni – boshiga balo.*

2.1.5 Donolik - ahmoqlik

O'zbek maqollarida aqlga yuqori baho beriladi: *Aql – do'st, jahl – dushman; Aql – ilm kiyimi, zehn – fikr buyumi; Aql toshi – inson boshi; Aql-farosat – nisbiy karomat; Aqlli ish – qanotli qush; Aqlning o'lchovi – idrok.*

Maqollarda ahmoqlik ustidan kulinadi: Aqlsiz bosh – nursiz chiroq; Ahmoqning javobi – sukut; Ahmoqqa quva bir tosh.

2.1.6 Ilm, fan, bilim

Bilimga intilishni o'zbek xalqi har doim qo'llab-quvvatlagan. Bunday intilish maqollarda o'z aksini topgan: O'qish – bilim o'chog'i, bilim – umr bulogi, Bilim – aql chirogi, Bilimli olim – bilimsiz – zolim, Ilm – tubsiz quduq, Ilm – inson yarogi, Ilm – aql bulogi, aql yashash chirogi, Ilm – aql chirogi. Ilm – dilning chirog', maktab ilm chorbog'i; Ilm-yorug'lik, jaholat – zulmat; Ilm – xazina, bilim – dafina; Ilm – egarlangan ot, bilganga – do'st, bilmaganga – yot; Ilm o'lchovi – aql, zehn o'lchovi – naql; Ilm qidirmoq – baxt qidirmoq; Ilmli uy – charog'on, ilmsiz uy – zimiston; Ilmsiz olim – to'qimsiz eshak.

2.1.7 Oilaviy munosabatlar

Ko'pgina o'zbek xalq maqollari oilaviy munosabatlar mavzusiga bag'ishlangan. Ularda er-xotin, bolalar fe'l-atvoriga aniq tavsif beriladi, oilaga hurmat hissi tarbiyalanadi.

1. Er-xotin, ularning o'zaro munosabatlari

Er – avra, xotin – astar; Er vaziri – xotin, ro'zg'or og'iri – o'tin; Er – xotin – qo'sh ho'kiz; Er – xotin – qo'sh qanot; Er – xotinning urishi – doka ro'mol qurishi; Er – xotinning urishi – jo'ja xo'roz urishi; Xotin – bo'yin, er – bosh.

2. Xotin va uning xonadondagi o'rni

Xotin – uy bezakchisi, er – uy ko'makchisi; Xotin – uyning guli, bola – dilning; Xotin – uyning ziynati; Xotin – uyning chirog'i; Xotin + umr yo'ldoshi; Xotin er orqasidan – xotin, xotin xon orqasidan xonim; Xotin – erga oyna; Yaxshi xotin – uy bo'stoni, yomon xotin – zimistoni; Yaxshi xotin – uy ziynati, yomon xotin – to'y ziynati; Yaxshi xotin – uy egasi, yomon xotin – yo'l egasi; Yaxshi xotin – umr

boli, yomon xotin – jon zavoli; Yaxshi xotin – yarim rizq; Yaxshi xotin – hamisha bahor.

2.1.8 Maqollarda “so‘z”, “til” haqidagi maqollar

Ko‘pchilik o‘zbek maqollarida inson hayotiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan so‘zga katta ahamiyat beriladi, masalan: *So‘z kumush, jim otirish - oltin; So‘z chumchuq emas og‘izdan chiqsa tutib bo‘lmas; So‘zning boyligi - odamning chiroyligi; So‘zning yomoni - sanchiq, dardnini yomoni - quyonchiq; Aql o‘lchovi - so‘z, so‘z o‘lchovi- naql; So‘zning onasi quloq, Suvning onasi buloq.*

2.2§ Xitoy tili maqollarining semantik tahlili

Xitoy tilidagi maqollar ham semantik rang baranglikka ega, tahlilga tortilgan 50 ta maqollardan quyidagi asosiy semantik guruhlarni ajratib oldik:

1. Vatan, ona yurt haqidagi maqollar;
2. Yahshilik va yomonlik haqidagi maqollar;
3. So‘z, til ahamiyati haqidagi maqollar;
4. Ilm-fan haqidagi maqollar;
5. Do‘st va dushmanlik haqidagi maqollar;
6. Mehnat va dehqonchilik haqidagi maqollar;
7. Boylik kambag‘allik haqidagi maqollar.

Ularni biz nafaqat tarjimasi balki, xitoy maqollarining o‘zbek tilidagi maqollarning semantic jihatidan muqobillarini ham taklif etamiz:

2.2.1. Vatanga, xalqiga, tug‘ilib o‘sgan joyiga bo‘lgan mehr muhabbat

1. 国泰民安 *guo tai min an* ; yoki

Tarjimasi: Davlat tinch-fuqarisi tinch.

O‘zbekcha muqobili: Vatanning tinch –sen tinch;

Ona yurtning omon bo‘lsa – rangi ro‘ying somon bo‘lmas .

2. 安土重迁 *an tu zhong qian* - Begona tuproq devona tuproq

3. 走千走万，不如淮河两岸 *zou qian zou wan, bu ru zhun he liang an*

Tarjimasi: Ming uzoqqa yur, o‘n ming uzoqqa yur, baribir o‘z joyingchalik bo‘la olmaydi.

Ona yurtning oltin beshiging

1. 在家千日好，出门一时难 *zai jia qian ri hao, chu men yi shi nan*

Tarjimasi: Kuning uyda ming kunlab o'tsa ham yahshi, tashqarida bir daqiqasi ham qiyin o'tadi.

O'z uying o'lan to'shaging

2. 国家兴亡，匹夫有责 *guojia xing wang, pi fu you ze*

Tarjimasi(yurt haqida qaygurish hammani burchi)

Vatan uchun o'lmoq ham sharaf

6. 国以民为本，民以食为天 *guo yi min wei ben, min yi shi wei tian*

Tarjimasi:(davlatning asosi xalq, xalq ozuqa bn tirik..) Xalq ishi- haq ishi.

2.2.2. Yahshilik va yomonlik haqidagi maqollar

1. 善有善报，恶有恶报 *shan you shan bao e you e bao*

Tarjimasi: Yahshilik qilgan yahshilik oladi, yomonlik qilganga yomonlik qaytadi.

O'zbekcha muqobili: Yahshi bolsang yetarsan murodga, yomon bo'lsang qolarsan uyatga

2. 见贤思齐 *jian xian si qi*

Tarjimasi: Ko'rib fikr qil(hulosa qil).

O'zbekcha: "Yahshini ko'rib fikr qil, yomonni ko'rib shukur qil" ga to'g'ri keladi.

3. 好事不出门，坏事传千里 *hao shi bu shu men huai shi zhuan qian li*

Tarjimasi: Yahshi ish(gap) tashqariga chiqmaydi, yomon ish bo'lsa uzoqlarga boradi.

Yomon gap tez tarqalar ; yoki

Yoki 恶事行千里 *e shi xing qian li* "Yomon gapning oyog'i olti"

4. 白沙在涅，与之俱黑 *bai sha zai nie, yu zhi zhi hei*

Yomonga yaqin yursang balosi yuqar,

Qozonga yaqin yursang –qarosi

5. 和气生财，忤逆生灾 *he qi sheng cai, wu ni sheng zai*

Yahshi so'z pul keltirar yomon so'z –kul .

6. 好鼓一打就响, 好灯一拨就亮 *hao gu yi da jiu xiang ,hao deng yi bo jiu liang*

Tarjimasi: Yahshi barabanga bitta ura jaranglaydi, yahshi chiroq bitta yoqsa yonadi.

O'zbekcha muqobil variant: "Yahshi otga bir qamchi,yomon otga ming qamchi"

7. 狗嘴里吐不出象牙 *gou zui li tu bu chu xiang ya*

Tarjimasi: Kuchuk og'zidan fil tishi chiqishini kutma.

O'zbekcha muqobili: "Yomondan yahshilik kutma"

8. 学好千日不足, 学坏一日有余 *xue hao qian ri bu zu,xue huai yi ri you yu*

Tarjimasi: Yahshilikni o'rganishga ming kun ham kam, yomonlikka esa bir kun ham ko'p;

2.2.3. So'z va til ahamiyati haqidagi maqollar

1. 好话一句三冬暖, 恶语伤人六月寒 *hao hua yi ju san dong nuan ,e yu shang ren liu yue han –*

Tarjimasi: Bitta yahshi so'z uchta bahor illiqligidak, yomon so'z 6 qishning qahratonidakdir.

O'zbekcha muqobili: Yahshi so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i

2. 一言既出, 驷马难追 ⁵¹*yi yan ji chu si ma nan zhui*

Aytilgan gap –otilgan o'q

3. 病从口入, 祸从口出 *bing cong ru kou, huo cong chu kou*

Tarjimasi: Kasallik og'izdan kirar, nohushlik og'izdan chiqar.

O'zbekchada :Til-o'zingga dushman

4. 说到容易, 做到难 *shuo dao rong yi,zuo dan nan –*

Tarjimasi: Aytish oson,qilmoq qiyin

5. 说曹操, 曹操到 *shuo cao cao,cao cao dao*

⁵¹ 王树山. 俗谚.-北京.: 2008, 页 33.

Tarjimasi: Endigina Tsao Tsaoni gapirsang, Tsao tsao shu yerda paydo boladi. (Tsao tsao) Vey imperiyasi asoschisidir.

Bo'rini yo'qlasang qulog'i ko'rinar

6. 一言不中, 千言无用⁵² *yi yan bu zhong, qian yan wu yong*

Bir so'z maqsadga tushmaydi, mingta gap qadrini yo'qotadi

7. 言语是白银, 沉默是黄金 *yan yu shi bai yin, chen mo shi huang jin* -

So'z kumush, sukunat oltin.

8. 秀才遇见兵, 有理说不清 *xiu cai yu jian bing, you li shuo bu qing*

O'likka yeg'lagan esiz ko'zim, nodonga so'zlagan esiz so'zim

9. 言多必失 *yan duo bi shi*; variant - 毋庸赘述 *wu yong zhui shu* (Ko'p gap qadrini yo'qotadi) Ko'p gap eshakka yuk.

10. 皮鞭伤肉, 恶语伤心 *pi bian shang rou, e yu shang xin*

Qamchi tanani yaralar, yomon gap qalbni

11. 说得容易, 做到难 *shuo de rongyi, zuo dao nan*

Aytish oson qilmoqlik qiyin.

12. 人言可畏 *ren yan ke wei* - Til zahardan achchiq

13. 美言美语受人敬, 恶语恶言伤人心 *mei yan mei yu shou ren jing, e yu e yu shang ren xing* -

Yahshi gap hurmat oshirar, yomon gap nafarat.

14. 蛇毒在牙齿, 人毒在舌头 *she du zai yachi, ren du zai she tou* -

Tarjimasi: Ilonning zahri tishi ostida, odamning zahri tilida

O'zbekcha muqolbili: Til- qilichdan o'tkir.

15. 苦言药也, 甜言疾也 *ku yan yao ye, tian yan zhi ye* - Achchiq so'z- doridir, shirin so'z- zahardir

2.2.4 Ilm, fan, bilim, o'qish haqidagi maqollar

1. 活到老学到老 *huo dao lao xue dao lao*

⁵² 李小媚. 饿汉汉俄谚语手册. 黑龙江.: 2010, 页 61.

Yuz yil yashasang yuz yil o'qi / Beshikdan qabrgacha ilm izla

2. 学而时习之 *xue er shi xi zhi* Takrorlash – bilim onasidir.

3. 青出于蓝而胜于蓝 *qing chu yu lan er sheng yu lan*

Tarjimasi:Ko'k bo'yoq rangi indigodan olinadi,ammo ko'klikda undan ham to'q rang beradi

Majoziy ma'noda: Shogird ustozdan o'tadi

4. 学问无穷，人寿有限 *xue wen wu qiong,ren shou you xian*

Bilimlar cheksiz ,inson hayoti cheklangan

5. 鸟贵有翼，人贵有智 *niao gi you yi,ren gui you zhi*

Qush qanoti bilan go'zal,odam bilmi bilan go'zal

6. 学而时习之 *xue er shi xi zhi* Takrorlash- bilimning onasidir.

7. 千学不如一看，千看不如一练 *qian xue bu ru yi kan,qian kan bur u yi lian*

Ming bor o'qigan bir ko'rganga yetmas,ming martta ko'rgan bir martta sinab ko'rmoqqa yetmas.

8. 学则明，不学则暗⁵³ *xue ze ming buxue ze an*

O'qish yorug'lik,o'qimaslik qorong'ulikdir

9. 学无止境 *xue wu zhi jing*

Bilimlar cheksizdir yoxud,O'qish o'rganishning chegarasi yo'qdir.

10. 学而优则仕 *xue er you ze shi*

Yahshi o'qiganning kelajagi tayin bo'lur.

11. 鸟贵有翼，人贵有智 *niao gui you yi,ren gui you zhi*

-Qush qanoti bilan,inson bilmi bilan qadrli

12. 有志不在年高⁵⁴*you zhi bu zai nian gao* - Aql yoshda emas,boshda

13. 有志不在年高,无志空长百岁 Aqlli bola- kattadir, Aqli yo'q –boladir.

2.2.5 Xalqning falsafiy tajribalari

⁵³ 李小媚. 饿汉汉俄谚语手册. 黑龙江.:2010, 页 75.

⁵⁴ 俗谚. 中国谚语总会. 汉族卷. 北京.:1983, 页 39.

1. 三思而后行 *san si er hou xing* – Tarjimasi: Uch martta o’ylab keyin ish qil.
“Yetti o’lchab bir kes”
2. 饮水不忘掘井人 *yin shui bu wang jue jing ren* -Suv ichganingda quduq qaziganni unutma.
3. 一手难遮两耳风，一脚难登两船。
4. 不怕慢就怕站 *bu pa man jiu pa zhan*
Sekin yursang ham to’htab qolma.
Qimirlagan qir oshar
5. 饿死莫做贼 *e si mo zuo zei* –
Och qolsang ham o’grilik(qalloplik) qilma.

2.2.6. Boylik kambag’allik

1. 朱门酒肉臭，路有冻死骨 *zhu men jiu rou chou lu you dong si gu* -
Boynikida kunda hayit,kunda to’y ,
Yo’qnikida kunda hasrat,kunda o’y.
2. 清贫常乐，浊富多忧 *qing ping chang le,zhuo fu do you* -Faqir inson doimo shod,boyga esa shodlik yot
3. 雨不能下一年，人不能穷一辈 *yu bu neng xia yi nian,ren bu neng qiong yi bei* - Yomg’ir yillab yog’mas,inson bir umr kambag’allikda o’tmas.
4. 人则思变 *ren ze si bian* - Kambag’allik harakatga chorlar.
5. 穷人的汗，富人的饭 *qiong ren de han,fu ren de fan*
Kambag’al ter to’kmasa boyning qorni och qolar.
6. 宁可人穷，不可志穷 *ning he ren qiong,bu ke zhi qiong* - Kambag’al bo’lsangda, qalbing qashshoq bo’lmasin.

2.2.7 Do’st va dushmanlik haqidagi maqollar

1. 水至清则无鱼 *shui zhi qing ze wu yu* (suv tiniq joyda baliq bo’lmas)
O’zbekcha muqobili: “Aybsiz do’st qidirgan do’stsiz qolar”

2. 宁喝朋友水，不吃敌人蜜 *ning he pengyou shui, bu chi di ren mi* Do'sting loyqa suv bersada ich, dushmaning asal bersada kechgin
3. 朋友百个少，仇人一个多 *peng you bai ge shao, chou ren yi ge duo*
Do'stning 100tasi ham kam, dushmanning bittasi ham ko'p.
4. 官情薄如纸 *guan qing bo ru zhi* - Amaldorning do'stligi qo'g'oz kabi yupqadir.

2.2.8 Oilaviy munosabatlar

1. 公说公有理，婆说婆有理 *gong shuo gong you li, po shuo po you li*.
Tarjimasi: Qaynota o'zinikini ma'qullaydi, qaynona o'zinikini to'g'ri deydi.
2. 成也妻，败也妻 *cheng ye qi bai ye qi* Erni er qiladigan, qaro yer qiladigan ham hotin.
3. 家和万事兴 *jia he wan shi xing* Oila inoq (kelishib) yashasa, u oilani omad kutadi. Majozan: Tinch uydin baraka arimaydi
4. 家有一老，犹如一宝 *jia you yi lao you ru yi bao*
Tarjimasi: Uyda qariya bo'lsa, bir gavhar kabi bo'lar.
Majoziy: "Qarisi bor uyning parisi bor"
5. 家贼难防 *jia zei nan fang* Uydagi o'g'ridan saqlana olmaysan.

2.2.9 Dehqonchilik va mehnat haqidagi maqollar

1. 春不种，秋不收 *chun bu zhong, qiu bu shou* Bahorda ekmasang, kuzda yeg'maysan.
2. 拳不离手，田不离口 *ju bu li shou, tian bu li kou* Mehnatdan qo'l uzmasang, dalada ozuqa arimaydi.
3. 几年辛苦，万年幸福 *ji nian xin ku, wan niang xing fu*
Bir necha yillik mehnat- ming yillik rohat.
Xitoy maqollari ham o'zbek maqollari singari turli guruhlarini o'ziga qamrab olgan. Keltirgan maqollarimiz asosan hozirgi davrda ko'p qo'llaniluvchi maqollarni keltirdik.

2.2.10 Xitoy va o'zbek maqollarining semantik hususiyatlarining qiyosiy tahlili

Xitoy, o'zbek va rus tilshunoslari tomonidan qayd etilganidek ko'pchilik maqollar semantik jihatdan bir biridan ko'chirgandek ikki tilda ham bir hil obrazlar, bir hil ifoda turlari olingan.⁵⁵

Ikki yoki bir necha til orasidagi o'xshashlik va tafovut qiyosiy tadqiqot natijasida aniqlanadi. V. D. Arakinning ta'kidlaganidek, qiyosiy metodning mohiyati "o'xshash vazifalarni bajaruvchi qator tillardagi hodisa va faktlarining izlab topilishi va aniqlanishidadir. Bunda qiyoslanayotgan tillarning genetik jihatdan yaqinligining ahamiyati yo'q"⁵⁶ E.D. Sulaymonovanning fikricha, "Qiyos ham bir tip doirasida til hodisasining tizimli tavsifiga ega bo'lish uchun, ham ushbu hodisaning boshqa tipdagi til hodisalari, ya'ni o'xshash hodisalar bilan qiyosan tavsiflash uchun amalga oshiriladi"⁵⁷

"Turli tizimdagi tillardagi maqollar uchun universalialar haqidagi ta'limot metodologik ba'za bo'lib hisoblanadi.

Universalialar (lat. Universalis – umumiy). "Til universalialari - barcha tillarga yoki ko'pchilik tillarga xos xususiyatlar"⁵⁸. Universalialar *deduktiv*, ya'ni barcha tillar uchun majburiy va *induktiv*, ya'ni eng mashhur tillardagina bo'ladi.

Birinchi tip universalialarga gaplar, ikkinchisiga maqollar kiradi. Maqollar barcha hind-evropa, turkiy, ugrofin, semito-xamit hamda afrika va polineziya tillarida mavjud. Undan tashqari, turli oilalarga mansub tillarda semantik bir turdan bo'lgan miqdoriy guruhni ajratish mumkin Biz E. Sulaymonovanning "til milliy muqobillaridan qat'iy nazar" "tafakkurning universal bazasi" ekanligi haqidagi fikriga to'la qo'shilamiz. Shu bois "tillarning chuqur teran tuzilishi" yagona hisoblanadi. "Turli tillarda so'zlashuvchilarning bir-birlarini tushunishlari fakti"

⁵⁵ Сулайманова Е.Д. Казахский и Русский язык: основы контрастивной лингвистики. Алматы.: 1996, -С.39.

⁵⁶ Аракин В.Д, Сравнительная типология английского и русского языков. Л.: 1979, -С.62.

⁵⁷ Сулайманова Е.Д. Казахский и Русский язык: основы контрастивной лингвистики. Алматы.: 1996, -С.41.

⁵⁸ Ярцева М, Большой энциклопедический словарь..М.:2000.-С.68.

birinchi navbatda yagona mantiqiy-tafakkur bazasining mavjudligi bilan izohlanadi.

“Aynan tillarning universal o‘xshashligi tillarni qiyoslash va ularning tasniflash uchun mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi hamda dunyo tillarini tasvirlash chog‘ida yuzaga keluvchi mashaqqatlarga barham berish vositasi hisoblanadi.”⁵⁹

Mazkur nazariy qoida maqollarning qiyosiy tadqiqiga nisbatan ham amal qiladi. Unda til universalialarining hisobga olinishi xitoy va o‘zbek tillaridagi maqollarni aniqlashga ko‘mak beradi.

“Har bir xalq maqollarda o‘z tajribasini ixcham shaklda aks ettiradi, ammo ko‘pincha bu tajriba boshqa xalqlarning tajribalari bilan mos keladi. Shundandir, ko‘pincha, turli tillardagi maqollar bir-biridan aynan nusxa ko‘chirilganga o‘xshab ko‘rinadi”⁶⁰

Maqollarning universalligini ishonch bilan yoqlovchilar asosan taniqli paremiologlardir. Masalan G.L. Permyakov maqollarning bir xildagi o‘xshash vaziyatlarni ifodalagani uchun turli tillarda bo‘lsada, ularning etnik, tarixiy va til tafovutlaridan qat’iy nazar (jumladan, turli tizimlarga tegishli bo‘lgan qardosh bo‘lmagan tillarda) bir-biriga juda yaqin turishini ta’kidlaydi.

“O‘xshash maqol va matallar, ularning til materialidan qat’iy nazar, qandaydir tipik vaziyatlarning obrazli muqobillaridir, bu tipik vaziyatlar aniq maqollarga nisbatan invariantlari hisoblanadi”⁶¹.

“Turli tizimdagi tillardagi maqollar universal xossalarga, hatto yagona mantiqiy-semantik tuzilishga egadir. Bu maqollar dunyosining qandaydir bir madaniyatga tegishli emasligi, ko‘pchiligiga xos ekanligi bilan bog‘liq. Bu demak, maqolning ta’rifi madaniyatlararo xarakterga ega bo‘lishi va o‘zi qayd etilgan barcha madaniyatlarning shartlarini bajarishlari lozim.

Biz quyida o‘zbek xitoy tillaridagi maqollarning shaklan va ma’nosi jihatidan o‘xshashlarini keltiramiz.

⁵⁹ Сулайманова Е.Д..Казахский и Русский язык: основы контрастивной лингвистики. Алматы.: 1996, -С.33.

⁶⁰ O‘zbek xalq maqol va matallari, T.:1985,-B.83.

⁶¹ Пермяков Г.Л.От поговорки до сказки(Заметки по общей теории клише)М.:1970. –С.20.

1. **“Shamol bo'lmasa darahkning uchi qimirlamaydi”** Xitoycha maqollar orasida ham shunday shakl va mazmunga ega bo'lgan maqol mavjud bo'lib u:

无风不起浪 *wu feng bu qi lang* So'zma so'z tarjimasi: “Shamol bo'lmasa to'lqin pайдо бўлмайду” yoki yana boshqa varianti: 无火不起烟 *wu huo bu qi yan* – tarjimasi- O't bo'lmasa tutun bo'lmas. 风不吹,草不动 *feng bu chui cao bu dong* ўзини таржимаси O'zbekchada ushbu maqolning yana boshqacha aytilishi ham mavjud: “Tagsiz habar tarqamas” deyдилar. Ko'chma ma'nodagi maqol hisoblanib, O'zbekcha ekvivalentida shamol-daraht so'zlari qo'llanilgan, xitoychada ham o'zbekcha maqoldagi kabi shamol 风 va 不起浪 to'lqin turmaydi so'zi qo'llanilgan. O'zbekchada aynan “daraht uchi” misol qilib olingan bo'lsa xitoycha ekvivalentida esa nima to'lqinlanishi yoritilmagan. Xitoychada maqol 5ta so'zdan (5 ieroglifdan) tashkil topgan bo'lib, o'zbekcha maqolda ham 5ta so'zdan tashkil topgan.

Yuqorida maqollar ikki bo'limga bo'linadi deb izohlab o'tdik. Lekin ushbu maqol bir bo'limdan tashkil topgan bo'lib, aslida bir bo'limdan tashkil topgan maqollar ham ko'pdir. “Shamol bo'lmasa darahkning uchi qimirlamaydi” Bu maqollar xalqning falsafiy qarashlari mahsuli bo'lib, tabiatda ham jamiyatda ham ro'y beradigan voqea hodisaning muayyan sababi bor. Sababsiz hech qanday oqibat bo'lmaydi. Masalan: “Xalq orasida bir gap tarqalibdimi -demak bir ish bor” degan ma'noda qo'llaniladi. Maqol va matallarni o'rganib chiqish jarayonida ularni bir biridan ajratadigan yagona bir belgi qidirib topishga ham intilishlar bo'lgan. Maqollarni matallardan farqli o'laroq, faqat ko'chma ma'noga ega va sermazmun deb hisoblashgan. Vaholanki, maqollarning orasida faqat tom ma'noda ishlatiladiganlari ham bor. Masalan:

2. **“Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yahshi”** yoki

“Uzoqdagi o'pkadan yaqindagi quyruq yahshi”

Yon qo'shnim- jon qo'shnim kabi bir hil semantic ma'noga ega bo'lgan ushbu maqollarning ekvivalenti xitoychada ham bor:

远亲不如近邻 *yuan qin bu ru jin lin*

So'zma so'z tarjimasi "Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni yahshi". **Uzoq qarindosh** xitoycha maqolda 远亲, **yaqin qo'shni** -近邻.

Xaqiqatdan uzoqdagi qarindosh ba'zida qo'shningchalik bo'la olmaydi. Ahir o'zbek xalqi aytadilark **"Yon qo'shnim - jon qo'shnim"**. Bu maqol xalqimizning qo'shniga bo'lgan hurmati, qo'shnichilikning mehr-oqibati ifodasidir. Qo'shnichilikka bo'lgan hurmat e'tibor nafaqat o'zbek xalqimizda balki xitoy xalqida ham qadrlanishi uning ushbu maqolidan ham bilsa bo'ladi. Har bir xalqning maqollari o'sha xalqning madaniyati va mintalitetini ifodalaydi. Maqollarni yaqindan bilish o'sha xalqning tili, o'ziga hos milliy hususiyatlari va tarihi to'g'risida fikr yuritishiga imkon beradi. Xitoycha maqolda 5ta ieroglif, o'zbekcha maqolda ham 5 ta so'z.

2. "Besh qo'l barobar emas"

十个指头不一般齐 *shi ge zhitou bu yi ban qi*

五个指头有长短

Xitoy tilida maqolning so'zma so'z tarjimasi quyidagicha: O'n barmoq barobar emas.

Ushbu maqollar ikki tilda ham struktur hamda semantik jihatidan o'hshash bo'lib, xitoy tilidagi maqolda **o'n** barmoq deyilsa, o'zbekchasida-**besh** barmoq deyilgan. Faqatgina xitoyliklar maqolni ifodalashda ifoda vositasiga ikkala qo'lning ham barmoqlarini qo'llagan. O'zbeklar uchun faqat bitta qo'lning barmoqlari maqolning mazmunini ifodalash uchun yetarli bo'lgan.

Xitoyliklar ushbu maqolga quyidagicha izoh beradilar-

Bir yerdan o'sib chiqqan don dunning har donasi bir biriga o'hshamaydi. Biri katta, biri kichik yoki shakli rangi boshqacha bo'lganidek, hayotda ham nafaqat qo'ldagi barmoqlar yoki don mahsuloti balki, predmet va insonlar, voqea hodisalar, bir ota onaning farzandlari, ularning harakteri yoki tuzilishi bir biriga o'hshamasligi ta'riflanmoqda.. Ammo ikki xalqning maqolida ham ushbu mazmunni ifodalash vositasi sifatida aynan "barmoq" so'zi qo'llanilgan.

Struktur: Xitoycha ekvivalentida 8ta eirolif ya'ni 8ta so'zdan tashkil topgan bo'lib, turli davrlarning turli kitob va asarlarida ushbu maqol turli hil shakllarda uchraydi. Ularning bir necha variantlari bor. Masalan: 吴越 *Wu yue* “苍梧山恩仇记” *cang wu shan en chou ji* asarida 十个指头有长有短 *shi ge zhitou you chang you duan* shaklida yozilgan. O'nta barmoqlar orasida uzun va kalta barmoqlar bor deyilgan. Boshqacha variant esa 十个指头有长短, 荷花出水有高有低 *shi ge zhiyou you chang duan, he hua chu shui you gao you di* Tarjimasi: “O'nta barmoqlar uzun kalta bo'ladi, suvdan chiqqan nilufarning biri uzun biri kalta bo'ladi”.

Ushbu maqol xitoy asar va hikoyalarida yana quyidagicha shaklda ham uchraydi: 十个指头有长短, 一树果木有酸甜 *shi ge zhitou you chang duan, yi shu guo mu you suan tian* Tarjimasi: “Bir qo'lning barmoqlarida kalta uzuni bo'ladi, bir darahning mevasida shirini ham nordonni ham bo'ladi.” Ammo ushbu maqolning bugungi kundagi varianti 十个指头不一般齐.

3. Nima eksang- shuni o'rasan

种瓜得瓜, 种豆得豆 *zhong gua de gua zhong dou de dou*

Xitoychada ushbu maqol so'zma so'z tarjimasi: “Qovoq eksang qovoq olasan, loviya eksang loviya o'rasan”.

Bu maqolning o'zbekchasida aynan nima ekilishi haqida aytilmagan, umumiy qilib mavhum tarzda **Nima** va **shuni** so'zlari bilan ifoda etilgan. Xitoychada esa o'zbekchadagi **nima** – **shuni** so'zi o'rnida **qovoq** – **qovoq**, ikkinchi qismida **loviya- loviya** shaklida tuzilgan.

Xitoychada ham o'zbekchada qo'shma gap tarzida.

Dono xalqimizning falsafiy tajribalaridan hisoblangan maqollarimizdan biri :

5. “Yuz karra eshitgandan bir martta ko'rgan yahshiroq” Ushbu xalqimizning maqoli Xitoy xalqidan huddi shunday shaklda va mazmunda mavjuddir:

百闻不如一见, (百见不如一干)

bai wen bu ru yi jian, bai jian bu ru yi gan

Xitoychada maqolning so'zma so'z tarjimasi : “Yuz martta eshitish bir martta ko'rganga yetmaydi,(yuz martta ko'rgandan bir martta sinagan afzal)”. Maqolning o'zbekcha muqobilida yuz marotaba so'zi xitoy tilida ham yuz marotaba so'zi qo'llanilgan,bilan ifodalangan o'zbekchada bir martta ko'rgan yahshi so'zi xitoycha maqolda bir martta ko'rganga yetmaydi ya'ni qiyosiy usul qo'llanilgan.

6 . Devorning ham qulog'i bor

隔墙有耳 *ge qiang you er*

Maqolning so'zma so'z tarjimasi: “Dorning qulog'i bor”

7.Qorni to'qning qorni och bilan nima ishi bor

饱汉不知饿汉饥 ⁶² *bao han bu zhi e han ji* Tarjimasi:qorni to'q qorni ochning dardini bilmaydi.

8. “Qizim senga aytay kelinim sen eshit” Xitoy xalqida ushbu maqol quyidagicha:

指桑骂槐 *zhi sang ma huai*

Xitoychada maqolning so'zma so'z tarjimasi:(Tut darahtiga qarab sofora darahtini koyish) O'zbekcha maqolda qizim va kelinim so'zlari mazmunni ifodalab kelsa,xitoychada esa shu so'zlarning ma'nosini tut darahti va sofora darahti so'zlari ifodalab kelgan.

9. “Ish ustasidan qo'rqadi”

事怕行家 *shi pa xing jia* Tarjimasi:ish mutahassisidan qo'rqadi,ya'ni ustasidan qo'rqadi.

10. Tirnoq ostidan kir qidirmoq

鸡蛋里挑骨头 *ji dan li tiao gutou* Tarjimasi: tuhum ichidan suyak qidirmoq. Yo'q joydan muammo qidirish.O'zbek maqolidagi **tirnoq-** **kir** so'zlari xitoychadagi maqolda **tuhum-** **suyak** so'zlari orqali mazmun ifodalangan.Umumiy mazmun o'zbek tilidagi maqol bilan bir hildir.Shuning uchun ushbu maqolni semantik bir hil deymiz.

11.Eshitganinga emas,ko'rganinga ishon

⁶² 中国俗谚故事. 北京.:1993, 页 11.

耳闻是虚，眼观是实 *er wen shu xu, yan guan shi shi*

Tarjimasi: eshitganing yolg'on, ko'rganing haqiqat

Xitoy xalq maqollarida shu maqolning yana bir varianti mavjud: 耳闻不如目睹 *er wen bu ru mu du* So'zma so'z tarjimasi: eshitgan - ko'z bilan ko'rganga yetmaydi. Maqolda asosiy fikr **ishonch** haqida bo'lib, O'zbekchada **eshitmoq va ko'rish**, so'zi xitoychada ham **eshitmoq, ko'rish va yolg'on haqiqat** so'zlari qatnashgan. Semantik jihatdan ushbu ikki maqollar bir biriga o'hshash.

12. Sekin yurgan uzoqqa borar.

缓行走远路 *huan xing zou yuan lu*

So'zma so'z tarjimasi: Sekin yurgan uzoqqa boradi. Xitoy xalqida yana shunday ma'noni beruvchi maqol 不怕慢，就怕站 *bu pa man jiu pa zhan* Tarjimasi: Sekin yursang ham to'htab qolma. O'zbek xalqining "Qimirlagan qir oshar" maqoliga semantic jihatdan to'g'ri keladi.

13. Qarisi bor uyning parisi bor

家有一老，犹如一宝 *jia you yi lao you ru yi bao*

So'zma-so'z tarjimasi: uyda qari odam bo'lsa bamisoli gavhar

O'zbekcha maqolda **qari** va **pari** so'zlari xitoychadagi maqolda **qari – gavhar** so'zlari maqol mazmunini ifodalovchi vosita hisoblanadi.

14. Odamni bilmoqchi bo'lsang, uning do'stiga boq

观其友，知其人 *guan qi you zhi qi ren*

So'zma so'z tarjimasi: Do'stiga boqsang odamni bilib olasan.

15. "Yuzga kirsang, yuz yil o'qi yohud" "Beshikdan to qabrgacha ilm izla"

活到老学到老 *huo dao lao xue dao lao* Tarjimasi: Qancha yashasang shuncha o'qi. Inson umrining ohirigacha o'qisa ham dunyoning ilmlari tugamaydi. Inson umri barcha bilimlarni o'rganib tugatishga yetmaydi.

16. Bilmagan ayb emas, bilishga tirishmagan ayb yoki

Bilmaslik emas, o'rganmaslik ayb. Xitoychada:

不怕不知，只怕不学 *bu pa bu zhi pa bu xue* Tarjimasi- Bilmaslikdan qo'rqma,o'rganmaslikdan qo'rq

16. “Bugungi ishni ertaga qoldirma”

今日事今日毕 *jin ri shi jin ri bi* Tarjimasi: Bugungi ishni bugun bajar . O'zbekchada **ishni qoldirma**,xitoychada **bugun bajar**. Ya'ni ertaga so'zi qatnashmagan.Ammo ikkala maqolda ham bir hil mazmun anglanyapti.

Shaklan har hil mazmuni bir hil bo'lgan maqollar:

Semantik o'hshash lekin tuzilishi har hil bo'lgan maqollarga biz quyidagilarni keltiramiz.

1. “Oyning o'n beshi yorug' bo'lsa o'n beshi qorong'u”

Xitoycha muqobili esa: 三十年河东，三十年河西 *san shi nian he dong san shi nian he xi* Tarjimasi:(30 yil sharqda 30 yil g'arbda)ya'ni daryo 30 yil sharqda va 30 yildan so'ng g'arbga ko'chishi ifodalangan.Xitoyning Huanhe daryosining 30 yil sharqida(Shansi provinsiyasi hududi),30 yil g'arbiy Huanhega (Gansu provinsiyasi)ko'chishi aytilgan.Xitoy xalqi ushbu maqoli orqali oqim o'zgarishi,oqim doim bir yo'nalishda bo'lavermasligi yoki bir maromda bo'lmasligini aytmoqchi bo'lganlar. Xitoycha maqolimizda ifoda vositasi sifatida o'zbekchadagi 15 kun o'rniga 30 yil qo'llanilgan.oy so'zi xitoychada 河 he daryo, yorug' va qorong'u so'zlari ma'nosini xitoycha maqolda 东 va 西 sharq va g'arb so'zlari ifodalab kelgan.Ma'no jihatdan o'zbek maqoli “Oyning o'n beshi yorug' bo'lsa o'n beshi qorong'u” maqoliga ma'no jihatidan to'la mos keladi.Faqat maqoldagi mazmunni ifodalovchi so'zlar faqrli bo'lib,berayotgan ma'nosi bir hil.Albatta har bir xalq o'z turmush sharoiti,mintaliteti,dunyoqarashi doirasidan kelib chiqqan holda o'z xalqiga tushunarli bo'lgan so'zlar orqali maqol mazmunini ifodalaydilar.O'zbek xalqida shbu maqolning yana bir variant bor: “**Gadoyga bir eshik yopiq bo'lsa,bir eshik ochiq**” Xitoychadagi ushbu maqol yillar davomida

turlicha aytib kelingan: 今日河东, 明日河西 *jin ri he dong ming ri he xi* (Bugun sharq bo'lsa ertaga g'arb bo'ladi) ya'ni bugun qiyinchilik bo'lsa ertaga hursandchilik kunlari keladi degan ma'noni ifodalab kelgan.; 十年河东,十年河西 *shi nian he dong shi nian he xi*(o'n yil g'arbda,o'n yil sharqda) yana 四十年 河东, 四十年 河西 *sishi nian he dong si shi nian he xi* (40 yil sharqda,40 yil g'arbda) shu kabi turli shakllarda aytib kelingan.Ammo hozirgi davrda eng ko'p qo'llaniladigan variant aynan biz taklif etayotgan 三十年河东, 三十年河西 *san shi nian he dong san shi nian he xi* Tarjimasi:(30 yil sharqda 30 yil g'arbda). O'zbekcha maqoldagi vaqt hajmi xitoychadagi maqoldan ko'ra kamroqdir.O'zbek xalqi 1 oyda 30 kun bo'lgani tufayli unda 15 kuni yoruq 15 kuni qorong'u umumiy 30 kunga to'g'ri keladi.Ya'ni kishi boshidan o'tayotgan tashvish, mashaqqatli kunlarning rohatli kunlari ham bo'ladi deyilmoqchi.

Struktur jihatdan: O'zbek tilidagi maqolda so'zlar soni 8ta.Xitoy tilidagi maqolda so'zlar soni esa 10 ta.

2. “Kasalni yashirsang istmasi oshkor qiladi”

Ushbu maqolning o'zbekcha hamda xitoychada turli variantlari mavjud:

Variantlari: “Soyani chopib,yo'qotib bo'lmaydi”,

“Qing'ir ishning qiyig'i qirq yildan keyin ham chiqadi”

天网恢恢, 疏而不漏。 *Tian wang hui hui,shu er bu lou*

Tarjimasi: Qing'ir ishni hammadan berkitsang ham osmon(hudo) dan berkitolmaysan,yoki qochib qutila olmaysan.

“Cho'g'ni o'rab,bekitib bo'lmas”

纸里包不住火 *zhi li bao bu zhu huo*

Tarjimasi: olovni qog'ozga o'rab bo'lmaydi. Maqolning umumiy ma'nosi – qing'ir ishni yahsirsang baribir oshkor bo'ladi.Qanchalik yashirma baribir berkitib bo'lmasligi haqida o'zbekcha maqolda mazmunning ifoda vositasi sifatida **kasal** –

oshkor so'zi hizmat qilib, xitoycha maqolda **qog'oz** – **olov** so'zlari mazmunni ifodalab kelgan. Ikki til maqolida mazmun bir hil ammo ifoda vositalari har hildir. O'zbekcha maqolda 5 ta so'zdan tashkil topgan bo'lsa xitoychada 6ta so'z(ieroglif)dan tashkil topgan.

Xitoychada yana boshqa variant: 一手遮不住天 yi shou zhe bu zhu tian (精彩严肃故事小屋。山东 1997.30 页) “Oyni yetak bilan yopib bo'lmas”. Tarjimasi: Bir qo'l bilan kunni (osmonni) yopib bo'lmaydi. Maqolning o'zbekchasida oy so'zi xitoycha maqolda kun(osmon) so'zi bilan ifodalangan. O'zbekchadagi **yetak yopmaydi** so'zlarini ma'nosini xitoychada **bir qo'l yopmaydi**. Majozan “Xiyonat, jinoyat, ayb, gunoh qilib qo'ygan odam buni yashirishga har qancha urinmasin, baribir bir kunmas bir kun oshkor bo'lmay qolmaydi, qo'lga tushib jazosini tortadi” degan ma'noda qo'llaniladi. “”

Faqat maqollargagina tegishli deb hisoblangan yana ikkita belgi bor bo'lib, bular maqollarning ikki tarkibligi va ikki qismdan iboratligidir. Matllar esa bir hadli, bo'laklarga ajramaydi. Haqiqattan maqollar ikki hadli, lekin barchasi emas.

3. Ko'rpangga qarab oyoq uzat 力量而行 *li liang er xing* Tarjimasi: Kuchga qarab ish qil. Ko'rpa so'zi o'rniga kuch, ish qil so'zi xitoychada oyoq uzat so'zi bilan ifodalangan. Xitoychada ushbu maqolning yana bir variant bo'lib: 量体裁衣 *liang ti cai yi* Tarjimasi: govdasiga qarab kiyim bich. Ushbu maqol haqida shunday afsona bor. “Qadim zamonda bir zolim podsho bo'lgan ekan. U xalqni hilma hil yo'llar bilan qiynab azoblab, shunda o'zi rohatlanar ekan. Kunlarning birida u “Endi nima desamikin” deb bir hiyla topibdi. Xalqqa qarab: “Mening bo'yimga loyiq ko'rpa tikib kelinglar!” deb buyuribdi. Ertasiga odamlar podshoning bo'yiga tahminan tikkan ko'rpalarini ko'tarib, birin ketin saroyga kirib kela boshlashibdi. Podsho ko'rpalarni birma bir ustiga yopib ko'ra boshlabdi. Ko'rpa agar uzunroq bo'lsa uni ataylab bosh tomoniga tortib, oyoqlarini cho'zib, “Iye bu kaltaku!” deb, agar kaltaroq bo'lsa, jortaga oyoqlarini yig'ib olib: “Iye bu uzunku!” deb baqiraveribdi va ko'rpalarning egalariga 40 darradan urishni

buyuribdi. Shunda navbat bir cholga kelibdi. Podsho u keltirgan ko'rpani ustiga yopibdida, bosh tomonga tortib, oyoqlarini tizzasigacha ochib: "Iye bu kaltaku" deb baqirgan ekan, sabr kossasi to'lib turgan chol qo'lidagi hassasi bilan podshoning oyoqlariga bir tushuribdi. Podsho birdan cho'chib, oyoqlarini yig'ib olib cholga: "Nega oyog'imga urding?!" deb o'shqiribdi. Shunda chol: "Ko'rpangga qarab oyoq uzat-da!" debdi. Ushbu maqolda har kim o'zining ko'chiga qarab, sharoitga qarab ish ko'rishni va har bir qadamini o'ziga qarab bosishni, qo'lidan kelmaydigan narsalarga qo'l urmaslikka va bizga oldindan o'ylab ish qilishimizga chorlaydi.

4. 三思而后行 *san si er hou xing*

"Yetti o'lchab bir kes" Xalqimiz bu maqolini har hil variantlarda ishlatadilar: "Dilda pishir, tilde gapir", "Avval o'yla keyin so'yla", "Ko'p o'yla, oz so'yla" va hokazo. Xitoy tilida keltirilgan muqobil maqolning tarjimasi quyidagicha: Uch marta o'yla, keyin harakat boshla. O'zbek maqolida **yetti o'lchab** xitoychada **uch o'ylab** ya'ni sanoq so'zlarda farqli, birida uch soni, birida yetti soni qo'llangan, **bir kes** so'zlari ma'nosini xitoychadagi maqolda so'ngra harakat qil(ish qil) so'zlari ifodalab kelyapti. Demak ikki tildagi ushbu maqollar semantik jihatdan bir hil o'shashdir. Jamiyat a'zolari o'zaro munosabatlarda so'zlashish odobiga qat'iy rioya qilishlari zarurligi ta'kidlanadi. Kishi aytadigan so'zini avval o'ylab olishi, so'zng so'zlashi kerak. O'ylamay aytilgan so'z yoki o'ylamay qilingan ish kishini ko'pchilik oldida uyalib qolishiga yoki afsuslanarli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

5. "Ot aylanib qozig'in topar, er aylanib yozig'in topar"

树高千丈, 叶落归根 *shu gao qian zhang, luo ye gui gen* Ko'pincha bu maqolning birinchi qismini aytib yuradilar. Uning to'g'ri ma'nosi shuki, otni dalada o'tlab yursin deb, uni uzun arqonga bog'lab, qoziq qoqib qo'yadilar, yon atrofda o'tlab yuraveradiyu ammo qoqilgan qoziqdan yiroqqa ketib qolmaydi, aylanib aylanib yana shu yerga kelib qolaveradi. Maqolda ana shu hol misolga olingan. Xitoycha variantida esa otning o'rniga darahtni misol qilib yozgan. Tarjimasi: Daraht qancha baland bo'lsa ham bargi baribir darahtning atrofiga tushadi deyilgan.

Majozan: Biror bir sabab bilan o'z yurtidan,oilasidan yo ish joyidan boshqa yerlarga ketib qolgan odam bir kunmas bir kun qaytib keladi,yana o'zi tug'ilib o'sgan joyida,o'z ishida muhit topib,tinib tinchib turg'un bo'lib qoladi demoqchi.Maqolning ikkinchi qismini qo'shib aytganlarida esa:Yigit yoshligiga,tajribasizligiga borib,biror ayb qilib qo'ysayu,bu aybini tan olmay,o'zgalarning pand nasihatiga kirmay, o'z aytganidan qolmay,o'jarlik qilib har qancha yuravermasin,baribir yoshi ulg'ayib, yahshi yomonni ko'rib,es hushini yeg'ib olgach o'z yozig'ini topadi,ya'ni aybiga iqrar bo'lib,hatosini tan olib,odamlardan uzr so'raydi demoqchi⁶³.

⁶³ Китайско русский словарь.Шанхай.: 1990,-С.178.

II BOB. O'ZBEK VA XITOIY TILLARIDAGI MAQOLLARNING STRUKTURASI

3.1§ O'zbek tilidagi maqollarning strukturasi

O'zbek tilida **Sn+Sn** struktur sxemali gap shaklidagi maqollar ko'p ishlatiladi.

Ushbu sxema bo'yicha yasalgan sodda yig'iq gaplar rus tilidagi kabi kam uchraydi, masalan⁶⁴: *Podsholik - qonxo'rlik; Vaqt – omad; Yoshli – beboshlik; Qarilik– hastalik; Mastli – pastlik; Bolalik- podshohlik; Asad- rasamat; Basharam – shajaram.*

Bu gaplarning ba'zilar inkor gaplar hisoblanadi: *Kambag'allik ayb emas; Yolg'onchi kishi emas.*

Sn+Sn konstruksiyalari murakkab bog'lovchisiz gaplar tarkibiga kirishi mumkin, masalan: *Odam- gavhar, qo'li- gul; Yolg'onchi qallop, o'g'ri allop;*

Sn+Sn strukturali sodda yoyiq gaplar o'zbek tilida ko'p uchraydi, masalan: *Yutuqning kaliti- mehnat; Baxt garovi- do'stlik; Baxt belgisi- bilim; Baxt yalqovga- begona; Kambag'alning boyli - tanining sog'ligi; Vatan tuprog'I - g'alaba garovi; Odam odamga yov; Salomatlik – tanga katta ne'mat; Tavakkal-yerning yo'ldoshi; Aqlning o'lchovi- idrok; Ahmoqnining javobi sukut.*

Ko'pgina **Sn+Sn** struktur sxemali maqollar o'zlarida obrazli qiyosni ifodalaydi, masalan: *Umr – o'tkinchi mehmon; Umrning egovi- qayg'u; Ish- insonning gavhari; Ona yurti- oltin beshiging; Vatanning vayronasi- umrning g'amxonasi; Xalq harakati- dengiz to'lqini; Odam aqli- olmos; Odamning qo'li - gul; Umr - ariqdan oqqan suv; Aqli ish- qanotli qush; Bilim - aql chirog'i; Ilm- tubsiz quduq; Aytilgan s o'z otilgan – otilgan o'q; Haqiqat- oltindan qimmat.*

Ba'zan solishtirmalar inkor orqali bo'lishi mumkin, masalan: *Qarilik - davosiz dard.*

maqollarga ega vazifasida substantiv gap bo'laklari keladigan konstruksiyalarni kiritishimiz mumkin. Masalan:

⁶⁴ Bakirov P.U. O'zbek, rus qozoq tillarining semantik va struktur tahlili. T.:2006.-B.89.

- 1) Sifatdosh: *Yovdan qo'rqan - yovga do'st, elni suygan - elga; Maydonda sinalgan - elda aziz; O'z aybini bilgan - mard; Adashganni yo'lga solgan - mard;*
- 2) Sifat: *Elga ma'qul- senga ma'qul; Bilimli- olim, bilimsiz- zolim; Aqlsiz jahilli- jahlsiz aqlli; Shuhratparast- hamisha pastkash;*
- 3) Harakat nomi: *Qo'rqish- yengilishning chopari, Chidamli bo'lish, kuchli bo'lish;*
- 4) Boshqa so'z turkumlari: *Elda bori- senda bori; Birov- tojdor,birov- bojdor; Ko'p hollarda nominasentrik maqollarda ikkita bir xil ega yoki ikkita bir xil kesim bo'lishi mumkin, masalan: Er-xotin- qo'sh ho'kiz; Mehnat va o'qish- og'a- ini.*
Gapning bosh bo'laklari vazifasida tez-tez miqdoriy-ismiy birikmalar keladi: *Yaxshi maslahat- yarim baxt; Yaxshi xotin- yarim rizq; Bir bosh- balo bosh,ikki bosh- mardona; Bir yigit- bir elga rizq; Bir kalla- kalla, ikki kalla- tilla; Bir kishi- bir kishi, ming kishi- ming kishi; Bir ko'rgan- oshno, ikki ko'rgan qarindosh; Bir miri- hamyon, uch miri- ziyon.*

Ba'zan konstruksiyalar tarkibiga determinantlar (to'ldiruvchi va hol) kiradi. Masalan: *O'z joyida laycha ham sher; Ahmoqqa Quva bir tosh; Bilimliga dunyo yorug', bilimsizga- qorong'i.*

bog'lovchisiz murakkab gaplar keng tarqalgan (ikki predikativ asosli gaplar). Masalan: *Suv- dehqonning qoni, yer- uning joni; Boyning so'zi boy, yo'qning so'zi loy; Sog'lik- umrning garovi, uyqu- umrning darmoni; Tavakkal- nor, andisha- moda; Maktab- kema, ilm- dengiz; O'qish bilim o'chog'l, bilim- umr bulog'i; Ilm- aql bulog'i, aql- yashash chirog'i;*

Faqat ba'zi hollarda nominasentrik konstruksiyadan iborat bo'lgan bog'lovchisiz murakkab gaplar boshqa predikativ birliklar bilan to'ldiriladi, masalan: *Xalq- tosh, amaldor- suv, suv kema berar, tosh qola berar;*

Shart ma'nosidagi murakkab gaplar tarkibiga yo faqat nominasentrik konstruksiyalar, yoki boshqa predikativ birikmali nominasentrik konstruksiyalar kiradi: **1.** *Non qon bo'lsa, qon-jon; Aytilgan so'z kumush bo'lsa, aytilmagan so'z -*

oltin; So‘zlaguvchi nodon bo‘lsa, eshitguvchi dono bo‘lsin; 2. Pul- qo‘lning kiri, yuvsa ketar; So‘z chumchuq emas og‘izdan chiqsa tutib bo‘lmas;

Tarkibiga nominasentrik konstruksiyalar kiruvchi ko‘pgina bog‘lovchisiz murakkab gaplar sintaktik parallelizm bilan xarakterlanadi. Masalan: *Suv-dehqonning qoni, yer- uning joni; Taka go‘sh t emas, amaldor do‘st emas; Qarilik davri- qishday, yoshlik davri- yoxday; Aql- ilm kiyimi, zehn- fikr buyumi; Aqlsiz bosh- nursiz chiroq; Ilmsiz olim, to‘qimsiz eshak; Do‘stsiz boshim, tuzsiz oshim; Sevgisiz ko‘ngil- egasiz uy; Suvsiz yer- yetim, molsiz er- yetim; Aqlli xotin- uy ko‘rki, chiroyli xotin- ko‘cha ko‘rki.*

Agar ikki yoki bir necha nominasentrik konstruksiyalarda ayni ma‘no predmeti bo‘lsa, unda bog‘lovchisiz murakkab gaplar ellipsisli bo‘lishi mumkin, masalan: *Pul- belga quvvat, (pul) boshga- toj; Bilimlga dunyo - yorug‘, bilimsizga(dunyo) - qorong‘i; Birinchi kun - oltin mehmon, ikkinchi kun - kumush (mehmon), uchinchi kun – mis (mehmon), uchdan o‘tsa - pes (mehmon).*

Ikki nominasentrik konstruksiyadan iborat bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda ba‘zan ikkilangan oppozisiya munosabati bo‘ladi (ikkilangan antonimlik). Masalan: *Borning yuzi yorug‘, yo‘qning yuzi- choriq; Yaxshining ishi- atir, yomonning ishi- zahar; Yaxshining ishi- jannat, yomonning ishi- kasofat; Yaxshining ko‘ngli- tog‘, baxtlining ko‘ngli- bog‘; Yaxshi qo‘shni- ota-ona, yomon- qo‘shni boshga balo; Aql- do‘st, jahl- dushman; Achchiq- dushman, aql- do‘st; Ilmli uy- charig‘on, ilmsiz uy- zimiston; Bolali uy- bozor, bolasiz uy- mozor; Yaxshi bola- suyuk, yomon bola- kuyuk; Aqlli do‘st - rohat, aqlsiz do‘st – ofat.*

Bir-biridan alohida leksemalar yoki so‘z tartibi bilan farqlanuvchi nominasentrik konstruksiyalar variantlari hisoblangan turli nominasentrik maqollarda bir xil ma‘no ifodalanishi mumkin. Masalan: *Yosh chog‘im- oltin chog‘im ; Yoshlik vaqtim- oltin taxtim; Qayg‘u- umr egovi; Umrning egovi – qayg‘u; Sog‘lik – tuman boylik; Salomatlik – tuman boylik; Aql – do‘st, jahl – dushman; Achchiq – dushman, aql – do‘st; Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor; Bolali uy – jannat, bolasiz uy – minnat; Bolali uy – xandon, bolasiz uy – zindon;*

O'zbekcha nominasentrik maqollarga xos bo'lgan narsa bir so'zning takroran qo'llanilishidir. Masalan: *Sevgi yerga – sevgi Vatanga; Xalq ishi – haq ishi; Elga ma'qul – senga ma'qul; Xalq ovozi – xalq nog'orasi, Xalq hukmi – haq hukmi; Oq it, qora it – bari bir it; Odam shaytoni – odam; Odam – odamning ko'zgusi; Umr savdosi – qiyin savdo; Qarilik uy – qayg'uli uy; Boylik boylik emas, birlik – boylik; Begona tuproq – devona tuproq; Ish do'sting – jon do'sting; Botir o'rtoq – boy o'rtoq; Xotin er orqasidan – xotin, xotin xon orqasidan – xonim; Bozorim bozor emas, ovulim bozor; Avvalgi savdo – savdo, keyingi savdo – g'avg'o.*

Bunday takror tufayli so'z har safar nominasentrik maqollar qatnashgan matnda aniq namoyon bo'ladigan yangi ma'no, yangi mazmun qirralarini ifodalaydi. O'zbek maqollarining xalqchilligi, nazmiyligi vazn, qofiya va ritmni ta'kidlaydi. Masalan: *Vaqt g'animat, o'tsa –, vaqtli harakat – oxiri barakat (, Odam bolasi – elning lolasi, O'lim hayot dushmani, qaytib kelmas pushmoni, Ish boshlaganda – ermak, bitmay qolsa – emgak; Yaxshi xislat – go'zal fazilat; Xalq sog'ligi – yurt boyligi; Aql farosat – nisbi karomat; Aql – chiroq, g'amdan yiroq; Ilm – xazina, bilim – dafina.*

So'z va bo'g'inlarning sonining bir xil miqdorda bo'lishi qofiyaning yasallishini ta'minlaydi: *Vatanga falokat – o'zingga halokat; Xalq sadosi – haq nidosi; Ilm o'lchovi – aql, zehn o'lchovi – naql (aforizm).*

Ba'zi nominasentrik maqollar urg'uli va urg'usiz bo'g'inlar teng ravishda ketma-ket kelgan ikki predikativ birliklarda teng bo'g'in miqdoriga ega bo'lgan qisqa she'riy asarlarni eslatadi. Masalan: *Bir miri – hamyon, uch miri – ziyon.*

Dalillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek maqollari orasida Sn +Sn tuzilish sxemasiga ega bo'lgan konstruksiyalar ustunlik qiladi. Boshqa tuzilish sxemasiga ega bo'lgan konstruksiyalar ancha kam uchraydi.

3.2§ Xitoy tili maqollarining struktur tahlili

Xitoy tilida asosan V+N +V+N (fe'l+ot+fe'l+ot) struktura shaklidagi maqollar ko'p uchraydi:

种瓜，得瓜 *ek + qovoq, ol + qovoq*

Majoziy ma'noda: "Nima eksang shuni o'rsan". Struktur jihatdan qo'shma gapli maqol bo'lib, 4ta morfemadan tashkil topgan bo'lib fe'l –ot, fe'l ot shaklida tuzilgan maqoldir.

指桑骂槐 (*ko'rsat + tut + so'kish + akatsiya guli*)

Maqolning so'zma so'z tarjimasi: Tutga qarab akatsiyani so'kmoq.

Ushbu maqolning ma'nosi: "Qizim senga gapiraman, kelinim sen eshit". Maqol qo'shma gap tarkibli bo'lib 4ta morfemadan tashkil topgan. 指 *zhi* ko'rsatish, 桑 *sang* –tut, 骂 *ma* –so'kish, 槐 *huai* akatsiya (yapon sofora darahti).

靠山吃山，靠水吃水 *kao shan chi shan, kao shui chi shui* (tayanmoq + tog' + yemoq + tog', tayanmoq + suv + ichmoq + suv)

Maqolning tarjimasi: (Tog'da yashagan tog'ga tayanadi, suvda yashagan suvga tayanadi) Ya'ni tog'da o'sgan tog'da ozuqa olib yashaydi, ko'l oldida yashaydigan ko'ldan ozuqa oladi. Hayot manbasi insonning atrofiga bog'liq.

Maqol struktur jihatdan fe'l + ot + fe'l + ot so'z turkumidan tuzilgan. Tarkibida 8ta morfema, qo'shma gap tarkibidan iborat.

骑马找马 *qi ma zhao ma* (minmoq + ot + izlamoq + ot)

So'zma so'z tarjimasi: Otga mina turib ot qidirmoq.

Majoziy ma'noda: "Yeb to'ymagan yalab ham to'ymaydi", Oldida turgan narsadan ko'ra yanada yahshirog'ini izlash nazarda tutilgan.

Struktur jihatdan olib qaraganda ushbu maqol 2 qo'shma so'z, 4ta morfemadan iborat. Maqoldagi 骑 *qi* minmoq, 马 *ma* – ot, 找 *zhao* – izlash, 马 *ma* –ot so'z turkumiga mansubdir.

看水放船 *kan shui fang chuang* (ko'rmoq + suv + tushir + qayiq) = (N+V+N+V) tuzilishli maqolning tarjimasi: Suvni ko'rdingmi qayinqni tushir. Majoziy ma'noda:

Vaziyatni qandayligini ko'rdingmi darhol vaziyatga qarab ish tut yoki ehtiyot chorangni qil ma'nosini anglatib kelgan. Maqolda qo'shma so'zdan tashkil topib 4ta morfema qatnashgan.

N+V tuzilishli maqollar

风不吹，草不动 *feng bu chui cao bu dong*

So'zma so'z tarjimai: (Shamol esmasa, maysalar qimirlamaydi)

Ko'chma ma'noda: Sababsiz hech narsa o'z o'zidan sodir bo'lmaydi.

O'zbekcha muqobili: "Shamol bo'lmasa darah t shohi qimirlamaydi"

Ushbu xitoy maqolining struktur jihatdan qo'shma gap tarkibli, 4ta morfemadan iborat bo'lgan maqolda (ot+fe'l, ot+fe'l), ya'ni: 风 *feng* shamol -ot so'z turkumi, 不吹 *bu chui* -esmasa- fe'l, 草 *cao* maysa-ot so'z turkumi, 不动 *bu dong* – qimirlamaydi-fe'l kesimli so'z turkumidan iboratdir. Maqol qo'shma gap tarkibli bo'lib, 4ta morfemadan tashkil topgan.

水不离山，肉不辞骨 *shui bu li shan, rou bu ci gu* N+ V+N (ot+fe'l+ot)

So'zma so'z tarjimai: (Suv to'gdan ajro bo'la olmaydi, go'sht suyakdan.

Majoziy ma'noda: Suv va havodek zarur. Tabiatdagi suv tog'ga bog'liq bo'ladi, ular bir birini to'ldirib turadi. Biri bo'lmasa ikkinchisi ham bo'lmaydi. Struktur jihatdan ushbu maqol qo'shma gap tarkibli, 6ta morfema hamda 2ta prefiksdan (不) tashkil topgan. Ya'ni: 水 *shui*-suv-ot, 不离 *bu li*- ajralmaydi-fe'l, 山 *shan*-tog'-ot, 肉 *rou*-go'sht-ot, 不辞 *bu ci*- ajralmaydi-fe'l, 骨 *gu*-suyak- ot so'z turkumidan tarkib topgan xitoy xalq maqolidir.

事怕行家 *shi pa hang jia* (N+V+N)

Ma'nosi: "Ish ustasidan qorqadi"

Struktur jihatdan (ot+fe'l+ot) shaklida tuzilgan ushbu maqol (ish+qo'rqadi+ mutahassis) ketma ketlikda tuzilgan. Maqol 1ta qo'shma so'z 4ta morfemadan tashkil topgan.

Xitoy tilining o'ziga hos, boshqa tillardan ajratib turuvchi xususiyatlaridan biri unda xisob so'zlarning qo'llanilishidir. Xitoy tilida predmet miqdorini ifodalashda xisob

so'zlar qo'llaniladi. Predmetning shakli,hajmi, yoki vazifasiga qarab har biriga alohida qabul qilingan xisob so'z qo'llaniladi.Tilning ushbu hususiyati maqollarida ham aks etgan.Ko'pchilik maqollarda turli hisob so'zlar qatnashgan maqollar uchraydi.Ularni ko'rib chiqamiz:

君子动口不动手 *jun zi dong kou bu dong shou*

Tarjimasi: Yahshi er qo'li bilan emas so'zi bilan isbotlaydi;

N+A modelili maqollar

天下的乌鸦一般黑 *tian xia de wu ya yi ban hei*

Maqolda 乌鸦 wuya –qarg'a ot so'z turkumiga mansub, 一般黑 hei – bir hil qora sozi sifat so'z turkumiga tegishli bo'lgani uchun ushbu maqolni biz ot+sifat modeliga tegishli deb hisoblaymiz.Maqol sodda gap tarkibli bo'lib,7ta morfemadan tashkil topgan.

Maqolning ma'nosi: Qayerga borsang qozonning qulog'I to'rtta bo'ladi.

Yohud, "Ho'roz hamma yerda bir hil qichqiradi".

鸡烂嘴巴硬 *ji lan zui ba ying (N+A)(ot+sifat);*

Ushbu maqolda 鸡 *ji* –tovuq,ot so'z turkumi, 烂 *lan* –chirigan,aynigan –sifat so'z turkumiga mansub. 嘴 *ba* –og'iz-ot so'z turkumiga mansub, 硬 *ying*- qattiq-sifat so'z turkumidir.

So'zma so'z tarjimasi: tovuq o'zi chirigan bo'lsa ham og'zi qattiq

Majoziy ma'noda: Otdan tushsa ham egardan tushmaydi.

Demak ushbu maqolni biz ot+sifat modelli maqol deyishimiz mumkin. Maqolda 5ta morfema,soda gap tarkibli maqoldir.

Num+ m+N+V

Son+ hisob so'z+ot turkumli model

一个巴掌拍不响 *yi ge bazhang pai bu xiang*

(bir+xisob so'z+qarsak+jaranglamaydi)

Qars ikki qo'ldan chiqadi

Num+m +N

一分耕耘，一分收获 *yi fen geng yun, yi fen shou huo* (Num+m +N)

(soni+ xisob so'z+ot) ya'ni

Tuzilishiga ko'ra: (bir soni+ xisob so'z+harakat+bir+x.s+barakat) ketma ketlikda tuzilgan.

O'zbekcha muqobili: "Harakatda barakat".

"Bir harakatda bir barakat", ya'ni bitta qilingan urinishdan bitta natija albatta

chiqishi nazarda tutilib, ushbu maqolda 分 xisob so'z bo'lib, 耕耘 *geng yun*

(harakat) hamda 收获 *shou huo* (natija, barakat) so'zlariga nisbatan qo'llanilgan. (

分 –xitoycha o'lcham birligi hisoblanadi, uzunlik o'lchovlarida (yarim enlik) hamda pul birliklarida (bir tiyin), vaqt birligi (daqiqqa) da qo'llanadi.)

Maqolda 3ta morfema, 2 son, 2ta xisob so'z qatnashgan.

你敬人一尺，人敬你一丈 *ni jing ren ren jing ni yi zhang*

(V+num+m)

Hurmat qilsang hurmat topasan.

尺 chi ma'nosi –o'zimizning an'anaviy uzunlik o'lchovimiz "qarich"ga to'g'ri keladi.

丈 zhan bu xisob so'z ham xitoy an'anaviy uzunlik o'lchovlaridan bo'lib, o'zbek tilidagi "quloch" Maqoldan shu ma'noni anglash mumkinki:

Tarjimasi: Boshqalarni bir qarich hurmat qilsang, boshqalar seni ikki quloch hurmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki xitoy tilidagi maqollar struktur jihatdan o'zbek tili struktur modeliga o'hshamaydi. Xitoy tilida asosan V+N modellari regulyar hisoblanadi. Undan tashqari xitoy tilining o'ziga hos bo'lgan xususiyatlaridan biri xisob so'zlar maqollarda ham aks etgan. Bunday holat o'zbek maqollarida deyarli uchramaydi.

XULOSA

1. Maqollar xalq donishmandligini ifodalar ekan o'ziga xos, insondagi eng axloqiy sifatlar ma'qullanadigan, ma'naviyat tasdiqlanib, har qanday nuqson, illat qoralanadigan o'ziga xos axloq kodeksi sifatida namoyon bo'ladi.
2. "Maqollar - xalqning ko'p asrlik ijtimoiy-tarixiy tajribasi aks etgan xalq so'zlaridir. Shuningdek, maqol – xulosa, mulohaza, hukm, nasihatdir hisoblanadi.
3. Maqol jumla, nutq hodisasi oddiy hodisani tashqi tomondan aks ettiradi, aniq dalil yoki aniq vaziyatni bildiradi.
4. Maqol deb -"Kundalik nutqda qisqa, turg'un, ohang jihatdan uyushgan, xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi aks etgan, tugallangan jumla (sodda yoki qo'shma gap)" tushuniladi.
5. Maqollar -yagona mantiqiy mazmunga ega bo'lgan maqollar bir-biridan tamoman farqli leksik-grammatik tarkibga ega bo'lishi mumkin.
6. Ko'pchilik maqollar insonni to'g'ri harakatlanishga undaydi: ular insonga nima qilish kerak-u, nima qilmaslik kerakligini ko'rsatib turadi, salbiy hatti-harakatlardan asraydi. Xitoy va o'zbek maqollari ham huddi shunday hususiyatga ega.
7. Paremiyalarni spesifik alomatlariga ajratildi
 - Xalqchilik;
 - kelib chiqishi qadimiy bo'lgan;
 - metaforiklik;
 - majoziylik;
 - ko'p manolilik;
 - nasihatomuzlik,
 - nazmiylik kabi hususiyatlarga bo'linadi.Xitoy xalq maqollari ham huddi shu alomatlariga ko'ra ajratiladi.
8. Ko'chma ma'nodagi maqollar nafaqat o'zbek tilida balki xitoy tilida ham mavjud.

9. O'zbek va xitoy tillaridagi maqol zahirasi mavzu guruhlariga, deyarli bir biriga mos keladi va ularni qiyosiy nuqtai nazardan tahlil etish maqsadga muvofiq.
10. Paremiyaning bir spetsifik turi bo'lgan maqollarga xos bo'lgan xossalari quyidagilardir: 1) xalqchilik; 2) kelib chiqishining qadimiyligi va dolzarbligi; 3) metaforiklik; 4) majozilik; 5) ko'pma'nolilik va umumlashtiruvchi xarakter; 6) nasihatkorlik; 7) obrazlilik; 8) hissiy to'ralik; 9) ixchamlik; 10) struktur-semantik tugallik kabi xossalari xitoy tilidagi maqollarda ham mavjud.
11. Maqol paremiologik birlik sifatida boshqa turdagi paremiyalar bilan nafaqat farqli xususiyatlar, balki umumiy xususiyatlarga ega.
- Maqollar boshqa barcha paremiyalar singari quyidagi xossalarni namoyon etadi: 1) qoliplashganlik; 2) aforistiklik; 3) utilitarlik; 4) antropotsentriklik
- Ana shu xossalarga suyanib holda quyidagi maqollarni taklif etildi. "Maqol – **obrazli**, **majoziy** va **nasihat** xarakteriga ega bo'lgan qoliplashgan paradigmatic shakldagi struktur va semantik jihatdan tugallangan ixcham xalq so'zidir".
12. Maqollar barcha hind-evropa, turkiy, ugrofin, semito-xamit hamda afrika va polineziya tillarida mavjud. Undan tashqari, turli oilalarga mansub tillarda semantik bir turdan bo'lgan miqdoriy guruhni ajratish mumkin. Biz E. Sulaymonovning "til milliy muqobilardan qat'iy nazar" "tafakkurning universal bazasi" ekanligi haqidagi fikriga to'la qo'shilmiz. Shu bois "tillarning chuqur teran tuzilishi" yagona hisoblanadi. "Turli tillarda so'zlashuvchilarning bir-birlarini tushinishlari fakti" birinchi navbatda yagona mantiqiy-tafakkur bazasining mavjudligi bilan izohlanadi.
13. Xitoy maqollarning o'zbek tilidagi bir xildagi o'xshash vaziyatlarni ifodalagani uchun turli tillarda bo'lsada, ularning etnik, tarixiy va til farqlaridan qat'iy nazar (jumladan, turli tizimlarga tegishli bo'lgan qardosh bo'lmagan tillarda) bir-biriga juda yaqin turar ekan.

14. Xitoy tilidagi maqollar semantikasi o'zbek tili semantikasi mavzu guruhlariga to'la mos keladi.
15. Xitoy tili maqollarining semantikasi ba'zi maqollarda bir biridan ko'chirilgandek bir hil obrazlardan tashkil topgan. Shuningdek xitoy maqollariga o'zbek maqollarida semantik jihatidan deyarli barchasiga muqobillari uchraydi.
16. Xitoy maqollari o'zbek maqollari kabi keng mavzu guruhiga ega. Xitoy maqollarining tematik guruhi boydir. Unda turli mavzuga oid maqollar mavjud. Bu shundan dalolat beradiki, xitoy va o'zbek xalqining tili, madaniyati bir hil bo'lmasada, ularning dunyoqarashi, dunyo manzarasi bir biriga o'hshaydi. Zero Har bir xalq maqollarda o'z tajribasini ixcham shaklda aks ettiradi, ammo ko'pincha bu tajriba boshqa xalqlarning tajribalari bilan mos keladi. Shundandir, xitoy tilidagi maqollar o'zbek tilidagi maqollar bilan bir-biridan aynan nusxa ko'chirilganga o'xshab ko'rinadi.
17. Xitoy va o'zbek tilidagi maqollarning farqli tomonlari: Xitoy maqollarida maqol mazmunini ifodalovchi obrazlar ko'pincha o'zbek tili maqollaridagi obrazlardan farqlidir. Masalan, xitoy tilidagi maqollarda hayvon obrazlari misolida asosan cho'chqa, sichqon, ot obrazlari olingan. Cho'chqa xitoy maqollarida boylik ma'nosini anglatib kelgan. Sichqon esa jirkanch obrazni ifoda etgan. O'zbek maqollarida esa it, taka obrazlari nisbatan ko'proq qo'llanilgan. It obrazi xitoy maqollarida ham uchraydi.
18. O'zbek tilidagi maqollarning struktur tahlilidan quyidagi xulosaga kelindi: O'zbek maqollari orasida ko'pchilik maqollar **S_n+S_n** sxemali konstruksiyada tuzilgan.
19. Xitoy tilidagi maqollarning struktur tahlilidan maqollar orasida ko'pincha **V+N** konstruksiyasi tashkil etadi.
20. Xitoy tilidagi maqollarning struktur jihatidan qiyoslaganda xitoy tili maqollarida o'zbek maqollaridan farqli o'laroq "xisob so'zlar" qatnashgan maqollar anchagina. Bu holat xitoy tilining o'ziga hos xususiyatining ta'siri

natijasida yuzaga kelgan.O'zbek tili maqollarida esa bunday holat ya'ni, xisob so'zlar (...ta, dona, chaqirim,kaft,juft kabi..) qatnashgan maqollar yo'q.

Demak: Xitoy tili maqollarining semantikasi o'zbek tilidagi maqollar semantikasiga o'hshaydi.

O'zbek va xitoy tillaridagi maqol zahirasining mavzu guruhlari, deyarli bir-biriga mos keladi va ularni qiyosiy nuqtai nazardan tahlil etish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida". T.1997.
2. Asqarova M. Xozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar.T.,1960.
3. Bakirov P.U. "O'zbek,rus qozoq tillarining semantik va struktur tahlili" T.:2006.
4. Balandparvoz so'zlar.- Toshkent.: 1986.
5. Imomov K, Mirzaev T,Sarimsoqov B,Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi.T.:1990.
6. Karimov A.A. Xitoy tilidagi hisob so'zlar: leksik-semantik,structural va funksional tahlil.- T.:ToshDShI,2003.
7. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk" 1-Tom,Toshkent.:1960.
8. Li Yamei, Ozod Ochilov,O'zbekcha-Xitoycha maqol,matal,iboralar lug'ati.T.:2010.
9. Mirzayev T. "O'zbek xalq maqollari" , Toshkent, 2003.
- 10.Mirzaev T. Gapda so'zlar tarkibi,T.,1955.
- 11.Sadriddinova M. Z. "O'zbek maqol va matallari leksikasi",T,1985.
- 12.Sadiqova M.O'zbek va rus maqol va matallarining lug'ati.T., "o'qituvchi" 1969.
- 13.Sarimsoqov B. Maqollar haqida//O'zbek xalq maqollari.T.,1978.
- 14.Salomov G'. Maqol va idiomalar tarjiması.T., 1961.
- 15.Soatov B.A. Maqollarda structural barqarorlik va semantic evolyutsiya.//O'zbek tili va adabiyoti,1989.
- 16.Soatov B.A. "O'zbek xalq maqollarining janr va she'riy xususiyatlari",T.,1990.
- 17.Tairbekov B.T. Maqol va matallarning tillararo transpozisiyasi; avtoref. dis.kand.Baku.: 1965.
- 18.Zaripov X. Otalar so'zi-aqlning ko'zi,T.,1947.
- 19."O'zbek xalq maqollari" Toshkent, 1958.
- 20.Shomaqsudov Sh, Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani . T.:2001.

Rus adabiyotlari

21. Аникин В.П,Круглов Ю.Г. Русское народное поэтическое творчество.Л.: 1983.
- 22.Аракин.В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков.Л.: 1979.
23. Барли. Н. Структурный подход к пословице;М.: 1984.
24. Даль В.И. Пословицы русского народа;М.:1957.
- 25.Дандис А.О. О структуре пословицы. Паремиологический сборник. М.1978.
- 26.Горелов В.И. Лексикология китайского языка.-М.:Просвещение, 1984.
- 27.Го Син И. Телесный код в китайской фразеология и его русское соответствие: Автореф.дис. канд.фил.наук.МГУ.:2004.
- 28.Горький А.М. История русской литературы,М.,1957.
29. Иванов В.В. Терминология и заимствования в современном китайском языке.-М.: Наука.: 1973.
30. Кууси.М.К. К вопросу о международной системе пословичных типов. /Паремиологический сборник.М.: 1978 .
31. Мартынова У,Митрофанова Д. Пословицы,поговорки,загадки.М., 1986.
- 32.Морозова Л.А. Антитеза в пословицах//Фольклор как искусство слова.М.,изд МГУ,1975.
- 33.Остроумов Н. Пословицы и поговорки туземного населения Туркест.края.Т.,1891.
- 34.Пермяков А. От поговорки до сказки(Заметки по общей теории клише) М: 1970.
- 35.Пермяков А.А. Пословицы и поговорки народов Востока.1979.
- 36.Перетц В.Н. Из истории пословицы,СПб.,1898.
- 37.Розенталь В.Г, Голуб Т.С, Теленкова С.А, Современный русский язык.М: 2001.
- 38.Русский язык. Энциклопедия, 1997.

39. Семенов А.Л. Некоторые особенности семантики сложения в изолирующих языках (К типологии семантических реляций) // Лингвистическая типология.- М., 1985.
40. Сулейманова Е.Д. Казахский и Русский язык: основы контрастивной лингвистики. Алматы.: 1996.
41. Валгина Е.А, Розенталь В.Г, Фомина В.Е, Фразеология, 2001.

Xorijiy adabiyotlar

42. 胡裕树 “现代汉语 Hu yun shu. “Hozirgi xitoy tili”.-Shanghai 1981.
43. 李小媚 “饿汉汉俄谚语手册” Li syao mei “xitoy va rus tili maqollari ” - Heilongjiang -2010.
44. 孙维张“汉语熟语学. Sun wei zhang , “Xitoy tili frazeologiyasi” 2003.
45. 王树山.«俗谚». Wang shu shan, «Su yan» («Maqol va matallar»).Pekin.: 2008.

Lug’atlar

46. Cihai. – Pekin, 1979.
47. 饿汉通。-Heilongjiang 2009.
48. 汉俄词典, “上海词典”编写组, Xitoy va rus tili lug’ati. Shanghai lug’ati. -Pekin 2004.
49. Краткий словарь литературоведческих терминов.-Л.:1978.